MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

"YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!"

VATANPARVAR

Yurt chorlasa suvlarni kech,
o'tlarga kir –
Fidoyilar kerak bizga, fidoyilar...

Muhammad Yusuf,
O'zbekiston xalq shoiri



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
24-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN

WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 25-SENTABR
№39 (3205)

Islohotlar amalda

TARAQQIYOT YO‘LIDAGI

Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tadbir Yangi Toshkentdagi “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida o‘tkazildi. Men bayram tadbirini oila davrasida, oynayi jahon orqali o‘zgacha bir zavq bilan tomosha qildim. To‘g‘risi, muazzam maydonda hukm surgan bayramona muhit, yurtdoshlarimizning ko‘tarinki kayfiyati, dilni yayratuvchi kuy-qo‘shiqlar hamda sahna ko‘rinishlarida jonlangan milliy ruh bayramni har bir xonadonga olib kirganidan shod bo‘ldim.
Ana shu onlarda bu shunchaki bayram tomoshasi emas, balki mustaqil Vatanimizning asriy orzulari ro‘yobi, bunyodkorlik va taraqqiyot tantanasi ekanini yurakdan his qildim.

Ana shu hislar og‘ushida Prezidentimizning tabrik nutqini tinglar ekanman, bugungi taraqqiyotimizning mazmun-mohiyatini ifodalaydigan fikrlar ayniqsa e’tiborimni tortdi. “Biz bugun kechagidan kuchlimiz. Nasib etsa, ertaga bundan ham kuchli bo‘lamiz. O‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li bir haqiqatni ko‘rsatdi: xalq va davlat yagona maqsad yo‘lida birlashib, astoydil harakat qilsa, zabt etib bo‘lmaydigan marraning o‘zi yo‘q”, dedi davlatimiz rahbari.

Darhaqiqat, bugungi kuch-qudratni kechagi kun bilan qiyoslamasdan turib, ertangi marralar haqida so‘z yuritib bo‘lmaydi. O‘tgan yillar davomida mamlakatimiz hayotida yuz bergan o‘zgarishlar, inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan islohotlar, xalqimizning turmushi va dunyoqarashidagi yangilanishlar “Yangi O‘zbekiston” tushunchasiga mazmun bag‘ishlayotganini ko‘rsatmoqda.


Inkor etib bo‘lmas haqiqat mavjud: davlat va xalq bir maqsad atrofida birlashsa, har qanday marrani zabt etish oson. Bunday el dunyoda cheksiz kuch-quvvatga ega bo‘ladi. Bir el, yagona Vatan bo‘lib birlashishga esa adolatli boshqaruv orqali erishiladi. Buni Yangi O‘zbekiston bosib o‘tgan qisqa, lekin zalvorli yo‘l misolida yaqqol ko‘rib turibmiz.

Darhaqiqat, mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylantirildi. Xalqimizning yillar davomida yig‘ilib qolgan muammoli masalalari birma-bir hal etila boshladi. Ana shunday qizg‘in yangilanishlar pallasida Uchinchi Uyg‘onish davri poydevorini yaratishday katta marra oldik. Uch ming yillik davlatchilik tarixiga ega va jahonga ikki marta Renessansni taqdim eta olgan xalqqina shunday katta marra olishga haqli! Muhimi, bu shunchaki orzu emas, balki aniq reja asosida bosqichma-bosqich bosib o‘tilayotgan taraqqiyot yo‘lidir!

Islohotlar ko‘lami, natijadorligi, xalqaro maydondagi yirik ekspert va siyosatchilarning O‘zbekiston siyosatini e’tirof etib, davlatimiz rahbarini kuchli lider deya tan olishi zamirida mana shunday hayotiy haqiqatlar bor. Ha, bugun O‘zbekiston, uning xalqi kechagidan ko‘ra kuchli, ertaga bundan ham qudratli bo‘lishiga yuksak ishonch bor. Kechagi niyatlariga yetgan xalqimiz bugun yanada katta orzu va maqsadlar bilan yashamoqda.

Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Uyg‘onish davrini yaratish niyatida xalqimiz sinovli yo‘l bosdi. Nihoyat, qalbimizdagi ezgu niyat so‘zga ko‘chib, katta marralar belgilab olindi. Ana shu ezgu so‘zlar amal bilan birlashdi. Dastlab majburiy mehnat va bolalar mehnatiga barham berildi. Kecha paxta dalasida yurgan o‘qituvchi va o‘quvchilar bugun bor kuch va salohiyatini faqat ilmga qaratmoqda. Natijada bugun yoshlarimiz dunyoning eng bilimdon vakillari bilan nufuzli ta’lim dargohlarida yonma-yon o‘qiyapti.

Bundan tashqari, “konvertatsiya cheklovi”, “propiska” kabi odamlarni yillar davomida qiynab kelgan muammolarga barham berildi. O‘z Vatanining poytaxtida arzimas hujjat sabab jarimaga tortilgan, yurak hovuchlab panalab yurgan yurtdoshlarimizning qo‘rquvi yo‘qoldi. Qalblarni ishonch va xotirjamlik egalladi.



Yana bir og‘riqli nuqtalaridan biri – ilgari bitiruvchilarning qo‘lida diplomi bo‘la turib, ish tajribasi va amaliy ko‘nikmalari yo‘qligi tufayli ishga joylasha olmasligi edi. Ish beruvchilar esa doimiy ravishda kadrlar taqchilligidan shikoyat qilardi. Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bu ulkan jarlik bartaraf etildi va Germaniya, Avstriya, Shveysariyada o‘zini to‘liq oqlagan dual ta’lim tizimi O‘zbekistonda joriy etila boshladi. Ta’lim va mehnat o‘rtasidagi bog‘liqlik mustahkamlanib, yoshlar hali qo‘liga diplomini olmasdan turib o‘z sohasi bo‘yicha ishlash va daromad topish imkoniyati yaratildi.

Kuchli siyosiy iroda sabab O‘zbekiston dunyoga keng quloch ochdi. Yaxshi qo‘shnichilik degan ibora hayotiy haqiqatga aylandi. Markaziy Osiyo – yagona kuch, yaxlit mintaqa degan qarash shakllandi. Bunday bunyodkor o‘zgarishlar ko‘lami nihoyatda keng bo‘lib, ular yurtdoshlarimizni yagona va ahil xalq sifatida yanada mustahkam birlashtirdi. Muhimi, ana shunday ulkan ishonch va jipslik bizni yanada katta marralar sari yetaklamoqda. Mustaqilligimizning 35 yillik shodiyonasida davlatimiz rahbari bu haqda to‘xtalib: “Bugun biz tarixning yanada mas’uliyatli va hal qiluvchi pallasida turibmiz. Mamlakatimiz taraqqiyotning mutlaqo yangi davriga qadam qo‘ymoqda. Kelgusi o‘n yillik biz uchun milliy yuksalish davri bo‘ladi”, deya alohida ta’kidladi. Darhaqiqat, buyuk kelajakni faqat va faqat xalqimizning aql-zakovati, fidokorona mehnati va birdamligi bilan o‘zimiz bunyod etamiz. Shu maqsadda kelgusi yillarda yurtimizda inson qadrini yanada yuksaltiradigan **yettita milliy dastur** izchil amalga oshiriladi.

Unga ko‘ra, **birinchi milliy dastur** bilim va malakani taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga



aylantirishga qaratiladi. Xususan, bolalarni 6 yoshli tayyorlov guruhlariga qamrab olish ko‘rsatkichi qisqa muddatda 100 foizga yetkazilib, xususiy bog‘chalar tashkil etish bo‘yicha imtiyozlar to‘liq saqlab qolinadi.

Barcha maktablar xalqaro baholash dasturlari bilan to‘liq qamrab olinadi.



Yurtimizdagi texnikumlarda xalqaro ta’lim standartlari joriy etiladi va ularda yoshlarni yuqori daromadli kasblarga o‘qitish yo‘lga qo‘yilib, qamrov 1 millionga yetkaziladi. Bir so‘z bilan aytganda, Yangi O‘zbekistonda kasb egallamagan biror yigit-qiz qolmaydi.

Sodda qilib aytganda, bugun davlat bayrog‘ini Vatan deya anglay boshlagan avlod ertaga yuksak salohiyatli va muhimi, vatanparvar kadrlar sinfini yaratadi. Ana shu maqsadga erishishda **ikkinchi milliy dastur** uning to‘ldiruvchisi bo‘ladi. Ya’ni ushbu dastur xalqimizning sog‘lom bo‘lishi va uzoq umr ko‘rishini ta’minlashga xizmat qiladi. Aholi salomatligi bilan bog‘liq davlat xarajatlari kelgusi besh yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5 foizga yetkaziladi. Tibbiyotda profilaktikani kuchaytirish orqali salomatlikni asrash modeliga o‘tiladi. Davlat tibbiy sug‘urtasi mamlakatning barcha xonadonlariga kirib boradi.

Ixtisoslashgan tibbiyotda raqobat muhitini kuchaytirish maqsadida dunyoning eng nufuzli kamida 5 ta klinikasi mamlakatimizga olib kelinadi.

Umuman olganda, keyingi yillarda yurtimiz zamonaviy tibbiyot, farmatsevtika, biotexnologiyalar va tibbiy ta’lim taraqqiy etgan maskanga aylantiriladi.

Uchinchi milliy dastur iqtisodiyotimizni yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi modeliga o‘tkazishdan iborat. Shu o‘rinda bir muhim jihatni eslash kerak. Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlarga juda katta imkoniyatlar yaratildi. Ammo bir haqiqatni aytish kerak: kecha qanday qilib jon saqlab qolish haqida qayg‘urgan tadbirkorlar bugun faoliyatini kengaytirish, xorijdan sarmoya olib kirib, xalqaro bozorlarga o‘z brendi bilan kirib borish haqida o‘ylayapti. Ana shunday shiddatli o‘zgarishlar iqtisodiyotimiz uchun katta marralarni olishni o‘rgatdi. Kelgusi o‘n yilda mamlakatimizga 450 milliard dollarlik xorijiy investitsiya jalb qilinadi.

YETTI MILLIY DASTUR

Iqtisodiyotda yuqori o‘sish sur’atini saqlagan holda 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 300 milliard dollarga yetkazish maqsad qilindi. Sanoatda esa 2 millionta yuqori daromadli ish o‘rni ochiladi.

To‘rtinchi milliy dastur suv va tabiatga munosabatni tubdan o‘zgartirishga qaratiladi. Kelgusi besh yilda ekin maydonlarida suv tejaydigan texnologiyalar qamrovi 100 foizga olib chiqiladi va bu umummilliy marraga aylanadi.



Tabiatga munosabat xalqning madaniyati, davlatning mas’uliyati va taraqqiyotning sifat ko‘rsatkichidir. Shuning uchun mamlakatimizda “Yashil makon” umummilliy harakati yangi sifat bosqichiga olib chiqiladi. Maktab, bog‘cha, shifoxona va ko‘p qavatli uylar atrofidagi yashil hududlar jamiyatning daxlsiz boyligi sifatida muhofaza qilinadi. Yaqin yillarda tuman va shahar markazlarida yashillik ko‘lami 30 foizga yetkaziladi. Adolat qaror topgan joyda iqtisodiy o‘sish ham, ijtimoiy ishonch ham yuksaladi.

Beshinchi milliy dastur sud mustaqilligini kuchaytirish va qonun ustuvorligini ta’minlashni umumiy qadriyatga aylantirishdan iborat. Buning uchun huquqiy tarbiya maktabdan boshlab aniq tizim asosida yo‘lga qo‘yiladi. Fuqarolar va tadbirkorlarning qonuniy kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha islohotlar qat’iy davom ettiriladi. Kiberjinoyatchilik, giyohvandlik va odam savdosining oldini olish bo‘yicha choralar yanada kuchaytiriladi. “Yashirin iqtisodiyot”, uyushgan jinoyatchilik, ayollar va bolalar huquqini kamsitishga qarshi kurash yangi bosqichga olib chiqiladi.

Mazkur dasturda ko‘rsatilgan har bir band mustaqillikning tayanch nuqtalaridir. Zotan, sud mustaqil bo‘lsa, adolat qaror topadi. Adolatli jamiyatda o‘sish ham, o‘zgarish ham bo‘ladi. Ana shunday jamiyat vakillari qonunlarga qadriyat darajasida qaraydi.

Aslida qonunlar ham ana shunday jonli qadriyatga aylanishi kerak. Tarixda ajdodlarimiz mahalla oqsoqolining so‘zini qonundek qabul qilgan. Chunki ular mahallada saylanib, saralanib chiqqan haqiqatparvar, elsevar va vatanparvar insonlar bo‘lgan. Ana shunday ulug‘ fazilatlar sabab mahalla dunyoda o‘xshashi yo‘q noyob boshqaruv tizimiga aylangan.

Bugun Yangi O‘zbekistonda ana shu asriy qadriyatlar zamonaviy ilm va ma’rifat bilan uyg‘unlashtirilib, yangicha mazmun kasb etmoqda. Xususan, mahallaning ulkan salohiyatidan oqilona foydalanish, uni tubdan isloh qilib, davr ruhiga mos mustahkam tuzilmaga aylantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Kelgusi o‘n yillikka mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida ushbu islohotlar izchil davom ettirilib, **oltinchi milliy dastur** orqali mahalla chinakam ma’noda jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantiriladi.

Birdamlik, ahillik haqida qancha ko‘p gapirsak, shuncha oz. Hozir ahillik har doimgidan ham ko‘ra dolzarb. Dunyo to‘fondagi qayiq misoli chayqalib turibdi. Ana shunday murakkab geosiyosiy vaziyatda mamlakatning harbiy, iqtisodiy qudrati xalq birdamligi bilan yanada mustahkamlanadi. Shu ma’noda **yettinchi milliy dastur** O‘zbekistonning tinchlik va do‘stlik diyori, bag‘rikeng o‘lka sifatidagi nufuzini har tomonlama yuksaltirishdan iborat etib belgilangani ayni muddao.

Hozir yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari, 16 ta diniy konfessiya a’zolari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bugungi notinch va tahlikali zamonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik xalqimizning bebaho boyligi ekaniga hech qanday shubha yo‘q. Xalqimizda: “Bo‘lar elning bolalari bir-birini botirim der”, degan purma’no hikmat bejiz aytilmagan.





Yangi O‘zbekistonning ochiq, pragmatik va qat’iy tinchlikparvar siyosati tufayli Markaziy Osiyoda ahil qo‘shnichilik, strategik sheriklik va do‘stlik aloqalari mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarilib, bugun biz chinakam yagona mintaqa bo‘lib birlashdik. Mintaqamizdagi ana shunday iliq muhit global miqyosda ham o‘z samarasini bermoqda. Jumladan, mamlakatimiz bilan diplomatik munosabat o‘rnatgan xorijiy davlatlar soni qariyb 170 taga yetdi. Albatta, bunday yuksak e’tirof va natijalarga erishish aslo oson kechmagan. Uning zamirida uyqusiz tunlar, xalq dardida tinim bilmay qilingan mashaqqatli mehnat hamda vatanparvarlik ruhiga yo‘g‘rilgan komil ishonch mujassam. Natijada bugun O‘zbekiston xalqaro diplomatiyaning muhim va nufuzli markaziga aylanib, dunyo davlatlari biz bilan keng ko‘lamli hamkorlik o‘rnatishga intilmoqda.

Bugun oldimizga qo‘yilgan ulug‘vor vazifalarning har biri alohida sohani qamrab olgandek ko‘rinsa-da, ularning barchasini birlashtirib turadigan yagona va oliy maqsad mavjud. Bu ham bo‘lsa har bir insonning munosib hayot kechirishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdir.



Shu bois “milliy yuksalish davri” degan tushuncha faqat balandparvoz shior emas, balki har bir inson hayotida sezilishi kerak bo‘lgan aniq natijalarni anglatadi. Uning mazmuni maktab o‘quvchisidan tortib talabagacha, kasb o‘rganayotgan yoshdan tortib sog‘lig‘ini asrashga intilayotgan insongacha bo‘lgan har bir fuqaroning kelajagi bilan bog‘liq.

Eng muhimi, bu vazifalarning amalga oshishi faqat davlatning sa’y-harakatlariga emas, jamiyatning faolligi va xalqning birdamligiga ham bog‘liq. Zero taraqqiyotning eng mustahkam poydevori – insonning o‘zi. Insonga berilgan bilim, yaratilgan imkoniyatlar esa mamlakatning ertangi qudratiga aylanadi.

Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”

Ko‘rik-tanlov





TO‘MARISDAN MEROS

To‘maris... Bu nomni tilga olganda ko‘z oldimizda qadim Turonning bepoyon dalalarida Vatan sarhadlarini himoya qilish uchun jangga otlangan dovyurak ayol siymosi gavdalanadi. U Kir II boshchiligidagi fors qo‘shiniga qarshi jang qilgan hukmdor va jasur sarkarda. Uning jasorati, harbiy-siyosiy faoliyati haqida xalq dostonlari yaratilgan, jangnoma va rivoyatlar to‘qilgan. Taniqli adibimiz Xurshid Davron o‘zining “Massagetlar malikasi va forslar podshohi” nomli asarida u haqda shunday yozadi: “To‘maris jasorati ikki daryo oralig‘ida yashovchi xalqlar tarixida o‘chmas iz qoldirdi... Qadim moziy bitiklarini varaqlagan insonlar dunyoning yarmini titratgan forslar hukmdori Kurush nomini emas, balki ona yurtini himoya qilib bosqinchilarni mag‘lub etgan massagetlar malikasi, mag‘rur va qo‘rqmas To‘maris nomini ulug‘laydi”. Zero u Vatan uchun, or-nomus himoyasi uchun janggohga kirdi. O‘zi uchun emas, eli uchun jon kuydirdi.





Shuning uchun ham To‘marisning shon-shuhrati, jasorati asrlar osha tillardan tillarga ko‘chib kelyapti. Ha, millatimiz o‘z qahramonlarini ko‘klarga ko‘taradi, farzandlarini ularga munosib qilib o‘stirishga intiladi. Buyuk ajdodlarimiz an’analarini davom ettirib kelayotgan avlodlar bilan esa har qancha faxrlansak arziydi.

Markaziy harbiy okrugning “Forish” tog‘ poligonida Mudofaa vazirligida xizmat qilib kelayotgan harbiy xizmatchi ayollar o‘rtasida “Vatan mehri yuragimda” shiori ostida o‘tkazilgan “To‘maris izdoshlari” ko‘rik-tanlovining vazirlik bosqichi harbiy sohada yigitlar bilan bir safda xizmat qilayotgan, mardlik va jasoratda ulardan qolishmaydigan, o‘zining ilm-u zakovati bilan jamoada o‘rin topayotgan, zimmalaridagi ham ayollik, ham bekalik, ham mas’uliyatli vazifani sharaf bilan uddalab kelayotgan ana shunday e’tirofga sazovor jasur ayollarni jamladi.

Besh kun davom etgan bellashuvlar shunchaki musobaqa emas, ishtirokchilarning irodasi, matonati va kasbiy mahoratini sinovdan o‘tkazgan o‘ziga xos imtihon bo‘ldi. Unda harbiy ayollar shartlar davomida harbiy xizmatchi ayollar nafaqat jismoniy chidamlilik va merganlik mahorati, balki o‘tkir zehn, favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalari hamda o‘z kasbiga sadoqatlarini ham amalda ko‘rsatdi. Har bir harakatda aniqlik, har bir qarorda mas’uliyat, har bir qadamda Vatan oldidagi burch hissi sezilib









YURTGA SADOQAT







turdi. Bellashuvlarning har bir sharti ishtirokchilardan alohida tayyorgarlik va chidam talab qildi. Jismoniy mashqlarda kuch va bardosh, merganlikda diqqat va aniqlik, intellektual shartlarda bilim va zukkolik, favqulodda vaziyatlarda esa tezkor fikrlash va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati namoyon bo‘ldi.

Ayrim lahzalarda yuzlarda charchoq aks etgan bo‘lsa-da, hech kim ortga chekinmadi. Chunki bu yerda har bir ishtirokchida o‘zining shaxsiy natijasidan ko‘ra kattaroq – Vatan himoyachisi degan yuksak nomga munosibligini isbotlash maqsadi bor edi.

Nishon qarshisida turgan harbiy xizmatchi ayolning nigohidagi jiddiylik esa alohida e’tiborni tortadi. Bu nigohda qo‘rquv emas, mas’uliyat bor edi. Qaror qabul qilinadigan lahzada esa uning butun diqqati bir nuqtaga jamlandi va nihoyat, o‘q uzildi!

Nishonga tekkan o‘q bilan birga go‘yo uning qalbidagi ishonch ham yana bir bor tasdiqlangandek bo‘ldi.

Aslida “To‘maris izdoshlari”ning haqiqiy imkoniyati va kuchini faqat poligondagi natijalar bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Zero bu ayollar har kuni xizmat joyida ham, oilasida ham ulkan mas’uliyatni ko‘tarib kelmoqda. Chunki ular harbiy xizmatchi bo‘lish bilan birga ona, rafiqa, oila bekasi. Farzand tarbiyasi, oila tashvishlari va xizmat mas’uliyatini bir-biriga uyg‘unlashtirib, har kuni o‘zini sinovdan o‘tkazadigan ayollar.

Tanlov jarayonini kuzatar ekansiz, beixtiyor To‘maris siymosi haqida o‘ylaysiz. Albatta, zamonlar boshqa. Qurollar boshqa. Jang maydonlari boshqa. Ammo Vatanga sadoqat, el-yurt taqdiri uchun mas’uliyat, or-nomusni asrashdek tuyg‘ularning mohiyati o‘zgarmagan. O‘zgarmagan bir jihat bor: bugungi ayol harbiy xizmatchilar ham To‘maris singari Vatan taqdiriga befarq emas. Ular ham yurt tinchligi va osoyishtaligini o‘zining muqaddas burchi deb biladi. Ularning jasorati nafaqat jang maydonida, balki har kuni xizmat vazifasini sidqidildan bajarishida, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishida, berilgan topshiriqni mas’uliyat bilan ado etishida namoyon bo‘ladi. Quvonarlisi, poligondagi har bir shart ishtirokchilardagi ana shu fazilatlarni yuzaga chiqardi. Kimdir jismoniy chidamliligi bilan, kimdir merganligi bilan, yana kimdir bilim va zukkoligi bilan o‘zini ko‘rsatdi. Shu bois “To‘maris izdoshlari”ga qarab, bir haqiqatni anglaysiz: ayolning nozikligi uning zaifligi emas. Aksincha, uning mehrida kuch, sabrida matonat, irodasida jasorat bor. To‘marisdan bugungi kun ayoligacha yetib kelgan eng ulug‘ meros ham aslida ana shu Vatanni sevish va uni asrashga tayyor turish jasoratidir.

Nihoyat, tanlov yakunlandi. Keskin va sog‘lom raqobat ruhida kechgan musobaqa yakuniga ko‘ra, faxrli 1-o‘rinni Toshkent harbiy okrugi jamoasi egalladi. Toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligi vakillari 2-o‘ringa, mezbon – Markaziy harbiy okrug jamoasi 3-o‘ringa sazovor bo‘ldi.

Tadbir yakunida g‘olib va sovrindor jamoalarga Mudofaa vazirligining maxsus diplomlari, qimmatbaho sovg‘alari hamda musobaqa kubogi tantanali ravishda topshirildi.

Podpolkovnik
Gulnora XODJAMURATOVA

E’tirof

YANA BIR ZAFAR —

TINCHLIK – ENG OLIY NE’MAT, uni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash esa har bir mard va jasur o‘g‘lonning muqaddas burchidir. Yurtimizning tinchligi, chegaralarimiz mustahkamligi zamirida kasbiga sadoqatni vatanparvarlik bilan uyg‘unlashtirgan mard harbiylarimizning fidoyi xizmati yotibdi. Ular o‘z xizmat vazifalarini sharaf bilan bajarish barobarida ko‘plab xalqaro harbiy musobaqalarda ham faol ishtirok etib, yuqori o‘rinlarni egallamoqda. Yaqinda Koreya Respublikasida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy jangovar tayyorgarlik musobaqasida Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilarining erishgan g‘alabasi buni yana bir bor namoyon etdi.













NUFUZLI MUSOBAQANING KO‘LAMI naqadar ekani uning maqomidan ham ko‘rinib turibdi. Mazkur musobaqada Amerika Qo‘shma Shtatlari, Ozarbayjon, Avstraliya, Polsha singari jami 7 ta mamlakatning 12 ta jamoasi – 500 nafarga yaqin eng sara ishtirokchi o‘zaro kuch sinashdi. Jarayonlarni Turkiya, Meksika, Filippin va Malayziya kabi yana 8 ta davlat harbiylari kuzatib bordi.

2023-YILDAN BUYON muntazam o‘tkazib kelinayotgan mazkur musobaqaning bu yilgi bosqichi o‘ta qizg‘in va murakkab sinovlarga boy bo‘ldi. Dastlab ishtirokchilar tog‘li, o‘rmonli va shahar hududlarida alohida jang olib borish shartlarini bajardi. So‘ngra barcha jamoalar uchun eng og‘ir bosqich bir vaqtning o‘zida har uchala hudud sharoitida jang olib borish shartlarida kuch sinashdi. Har qanday professional mutaxassisdan katta tajriba, temir iroda va yuksak mahorat talab etadigan bu kabi shartlar O‘zbekiston Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari uchun hech qanday qiyinchilik tug‘dirmadi. Aksincha, ular o‘zlarining yuqori darajadagi jangovar tayyorgarligini namoyon etib, turli yo‘nalishlarda rekord natijalarni qayd etdi.

YANA BIR SHARAF











MUSOBAQA TARIXIGA oltin harflar bilan yoziladigan natijalar milliy armiyamizning qudratini yaqqol ko‘rsatdi. Jumladan, harbiylarimiz tog‘li hududda mudofaada turgan shartli dushman kuchlarini hech qanday talafotlarsiz to‘liq yakson qilib, 7 ta bayroqni qo‘lga kiritdi. Shu kunga qadar xalqaro maydonda hech bir jamoa bunday yuqori natijani qayd etmagan edi.

SHAHAR SHAROITIDA jang olib borish shartida ham harbiylarimiz mudofaadagi shartli dushmanga shiddatli hujum uyushtirib, barcha muhim obyektlarni va yana 7 ta bayroqni qo‘lga kiritdi. Bu muvaffaqiyat ham bungacha hech bir jamoa tomonidan erishilmagan natija hisoblanadi. Bundan tashqari, shahar sharoitida mudofaa obyektlarini ushlab turish mashg‘ulotida jamoamiz birorta ham jangchini yo‘qotmagan holda 7 ta obyekt va barcha bayroqlarni muvaffaqiyatli qo‘lga kiritib, bu gal ham avvalgi rekordlarni yangiladi.

Bu kabi matonat va yuksak taktik tayyorgarlik hakamlar va xalqaro ekspertlar tomonidan munosib baholandi.

Umumiy hisobda:

316 ball to‘plagan O‘zbekiston jamoasi faxrli 1-o‘rinni;

212 ball bilan Kombodja 2-o‘rinni;

192 ball bilan mezbon Koreya jamoasi 3-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

XALQARO MAYDONDA yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘tarib qaytgan jasur harbiylarimiz Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida katta tantana bilan kutib olindi. Ularni Mudofaa vazirligi mas’ul ofitserlari, keng jamoatchilik vakillari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari cheksiz hurmat va ehtirom bilan qarshi oldi.

Bu kabi g‘alabalar yangi O‘zbekistonning mudofaa salohiyati, yoshlarimizning shijoati va milliy armiyamizning jahon miqyosidagi nufuzi naqadar yuksalib borayotganining yaqqol isbotidir. Zero o‘z kasbining haqiqiy fidoyilari bo‘lgan bunday mardlar bor ekan, yurtimiz mustaqilligi va osoyishtaligi doimo ishonchli qo‘llarda bo‘ladi.

Furqat ERGASHEV,
“Vatanparvar”

tekshiruvi

SINOVLARDA TOBLANGAN MATONAT



Shimoli-g‘arbiy harbiy okrugning Nukus garnizonidagi harbiy qismlardan birida harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi, kasbiy mahorati, bilim va ko‘nikmalari, jismoniy hamda jangovar qobiliyatini har tomonlama sinovdan o‘tkazish maqsadida nazorat tekshiruvi o‘tkazildi. Mazkur sinovlar harbiy xizmatchilarning o‘z tanlagan kasbining nechog‘li mutaxassisi ekanini yuzaga chiqargan muhim jarayon bo‘ldi.







Saf maydonida qad rostlagan yurt o‘g‘lonlarining qiyofasida qat’iyat va ishonch mujassam. Saf ko‘rigi va saf tayyorgarligi davomida harbiy xizmatchilarning o‘ziga biriktirilgan shaxsiy qurollari va yuk xaltalari tekshirildi. Bu albatta ularning yuqori darajadagi tartib-intizomi, jipsligi va harbiy tayyorgarligini namoyon etdi.

Jangovar vazifalarni bajarish qobiliyati, ofitserlarning komandirlik tayyorgarligi, mashg‘ulotlarda belgilangan topshiriqlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida ado etishi alohida baholandi. Zero komandir uchun har bir qaror ortida katta mas’uliyat turadi. U nafaqat o‘zi, balki boshqaruvidagi harbiy xizmatchilarning harakati, xavfsizligi va topshiriqning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun javobgardir. Sinovlar davomida ofitserlarning vaziyatni tezkor baholashi, to‘g‘ri qaror qabul qilishi va shaxsiy tarkibni boshqara olishi muhim mezonlardan biri bo‘ldi.

Shuningdek, nazorat tekshiruvi davomida jismoniy tayyorgarlikka ham alohida e’tibor qaratildi. Unda harbiy xizmatchilar 100 metr, 1, 3 va 5 kilometr masofalarga yugurish, belgilangan kuch mashqlari, turnikda tortilish, shuningdek maxsus mashqlarni bajarish orqali o‘zlarining jismoniy tayyorgarligini namoyon etdi.

Bu jarayonda faqat mushak kuchi emas, insonning irodasi, chidamliligi va o‘zini sinovli vaziyatlarda boshqara olishi ham namoyon bo‘ldi. Chunki jangovar sharoitda harbiy xizmatchidan nafaqat kuch, balki so‘nggi imkoniyatigacha kurashish, vazifani oxirigacha bajarish matonati ham talab etiladi.

Harbiy xizmatchining mahorati, eng avvalo, kutilmagan va murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri hamda tezkor qaror qabul qila olishi bilan o‘lchanadi. Har bir mashg‘ulotda olingan saboqlar ana shunday paytlarda o‘z amaliy natijasini ko‘rsatadi. Mazkur talabdan kelib chiqqan holda mutaxassislik tayyorgarligi sinovlarida harbiylarning nazariy bilimlari qat’iy ravishda amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirildi. Bu jarayonda bajarilgan har bir topshiriq shaxsiy tarkibdan aniqlik, hushyorlik va ulkan mas’uliyatni talab etdi.

O‘q otish mashg‘ulotlari ham harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini belgilovchi muhim yo‘nalish bo‘ldi. Bunda ayniqsa mashg‘ulotlarning kunduzgi va tungi sharoitlarda o‘tkazilgani harbiy xizmatchilar yuqori darajadagi hushyorlik, tezkorlik hamda aniqlik bo‘yicha sinovdan o‘tdi. Soniyalar ichida vaziyatni to‘g‘ri baholab, berilgan imkoniyatdan to‘g‘ri foydalana olish chinakam jangovar mahoratning asosiy mezoni ekanini amaliyot yaqqol ko‘rsatdi.

Haydash mashg‘ulotlarida esa ishtirokchilar tartib asosida notekis va belgilanmagan yo‘llarda harakatlanish, harbiy texnikani turli sharoitlarda boshqarish hamda shaxsiy tarkibni bir manzildan ikkinchi manzilga xavfsiz yetkazish bo‘yicha amaliy topshiriqlarni bajardi.

Test sinovlari harbiylarning nazariy salohiyati hamda mantiqiy fikrlash qobiliyatini xolis baholash imkonini berdi. Zero zamonaviy armiyada jismoniy kuch va qurol-aslahani puxta egallash qanchalik muhim bo‘lsa, yuksak intellektual salohiyat, chuqur nazariy tayyorgarlik va tezkor qaror qabul qilish layoqati ham shunchalik katta ahamiyatga egadir.

Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug matbuot xizmati





Iftixor

Tunbo‘yi uxlay olmadim. Doim biror yerga ketishim yoki erta uyg‘onishni reja qilsam, uyqu kelmaydi ko‘zimga. Bu gal ham shunaqa bo‘ldi. Erta tongdan hamrohlarimni uyg‘otib, aeroport tomon otlandik. Tong Xudoyim yaratgan ne’matlarning eng yaxshisi, ko‘ngilga huzur bag‘ishlaydi. Yurakni umidga to‘ldiradi.

YANGI O‘ZBEKISTON MUSHOIRASI



Surat sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi





Yanayam kuz tongi bo‘lsa, quloqlaring tagida baxt qo‘shiq kuylayotganga o‘xshaydi, xuddi. Mashina oynasiga yuzimni qo‘yib, mana shu xayollar og‘ushida manzilga kelib qolganimni ham anglamay qoldim. Yuklarni yelkaladik-da, samolyot tomon otlandik. Kun yaxshiliklar bilan boshlansa zo‘r-a, yana osmon-u falaklarni sayohat etish baxti ham nasib qilib turibdi. Uchog‘imiz qo‘zg‘alib, samo uzra parvoz eta boshladi. Avval ham uchganman bir necha bor, lekin bunisi boshqacha bo‘ldi. O‘zim o‘ylaganimdek, deraza yonida ekan joyim ham. Bulutlarga shunday qo‘l uzatsam yetgulik, faqat xavfsizlik oynalarini buzish imkoni yo‘qligi yomon-da. Telefonim kamerasiga har bir lahzani muhrlashga urinaman: bulutlar, bizdan olisda qolayotgan baland imoratlarning kichrayib borishi, bora-bora bir nuqtaga aylanib qolganiga ham guvoh bo‘ldim. Eng hayratlantirgani esa bulutlarning soyasi yerga tushib turishi, ha, bulutlarning soyasi yerga soya tashlab turarkan. Bu esa juda go‘zal hodisadek tuyuldi menga.

Hash-pash deguncha, manzilga ham yetib qo‘ydik. Hayrat-u hayajonlarim bilan ovora bo‘lib, manzil, maqsad-muddaoni unutib qo‘yibman-ku.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Xorazm viloyatiga tashrifi davomida belgilab bergan vazifalari ijrosini ta’minlash maqsadida Xiva shahrida “Yangi O‘zbekiston mushoirasi” nomli adabiy anjuman tashkil etilishi ko‘zda tutilgan edi.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi xodimlari hamda kamina ushbu tadbirda bosh-qosh bo‘lish vazifasini yelkasiga olgan. “Keldi-ketdi, o‘ting-qayting” degandek. Birinchi ishimiz konsert qo‘yiladigan joyni ko‘rish bilan boshlandi. Xiva shahrida joylashgan muhtasham imoratlardan biri – “Farovon” mehmonxonasining zali tanlandi.

Tayyorgarliklar nihoyasiga yetib, Ichan qal’a ziyoratgohini sayr qildik. Qadim minoralar, o‘zgacha shukuh ufurib turgan bu dargohda qandaydir sokinlik hukmron edi. O‘zingizni qadim xonliklar davrida yurgandek his etasiz. Quvonarlisi esa, bu gal, Xivaning ko‘hna minoralari, qadimiy obidalari bilangina emas, she’riyat ahli bilan ham gavjum bo‘ldi. Respublikaning turli hududlaridan tashrif buyurgan taniqli yozuvchi va shoirlar, yosh ijodkorlar bir davrada jam bo‘lib, o‘z qalbining eng nozik, eng samimiy kechinmalarini she’rga soldi.



Mushoiraning ochilish marosimini Xorazm viloyati hokimi o‘rinbosari Botir Saidov ochib berdi. U viloyat hokimi Jo‘rabek Rahimovning mushoira ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigini o‘qib eshittirdi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi birinchi o‘rinbosari Minhojiddin Mirzo esa adabiyot ahli uchun bugungi kunning quvonchli voqeasi bo‘lgan ushbu anjuman munosabati bilan ijodkorlarni qutladi.

Mushoirada Usmon Azim, Mahmud Toir, Xosiyat Bobomurodova, Rustam Musulmon, Farida Afro‘z, Zebo Mirzo, Salim Ashur, Muhammadsiddiq Rahmatov kabi ustoz adiblar hamda bir guruh yosh ijodkorlar ishtirok etishdi.

She’rlar she’rlarga ulandi, o‘lanlar laparlarga ulandi. O‘tirgan tomoshabinlarning ko‘zlaridagi hayratdan beixtiyor ko‘zingizga quvonch yugurgilaydi. Baxtiyorlik tuyasiz.

Chunki she’r bor joyda ko‘ngil uyg‘onadi. She’r bor joyda odam o‘zini, o‘zining kechinmalarini, aytilmay qolgan gaplarini topadi. Balki shu bois ham zalda o‘tirganlarning yuzlarida bir-biriga o‘xshamagan, ammo bir-birini tushunadigan tabassumlar paydo bo‘ldi.

Bir qarasangiz, sahnada ustoz shoir. Bir qarasangiz, endigina adabiyot yo‘liga kirib kelayotgan yosh ijodkor. Ammo yoshning ham, ulug‘ning ham so‘zi bir joyda — yurakdan chiqib, yurakka yetib borardi.

Xivaning qadim devorlari, osmon bilan bo‘ylashgan minoralari, tor ko‘chalari bu kunlarda she’r nafasini olib turgandek edi. Ko‘hna shahar go‘yo o‘zining mingyillik xotiralari orasiga bugungi kun she’riyatini ham qo‘shib olayotgandek. Tarix va bugun, qadimiylik va zamonaviylik bir davrada uchrashgan kun edi go‘yo.

Mushoira davomida men yana tongdagi parvozni esladim. Samolyot oynasidan qarab, bulutlarning soyasini ko‘rib hayratlangan edim. O‘shanda osmonning go‘zalligidan hayratlangan bo‘lsam, endi inson qalbining go‘zalligidan hayratlanib o‘tiribman. Bir tomonda, tabiat yaratgan mo‘jiza, bir tomonda, inson yaratgan so‘z... angladimki, safar faqat bir manzildan ikkinchi manzilga yetib borish emas ekan. Ba’zi safarlar odamni o‘zining ichki olamiga ham olib borar ekan.

Bugun Xivada kechayotgan bu adabiy uchrashuvni faqat navbatdagi madaniy tadbir sifatida baholab bo‘lmaydi. “Yangi O‘zbekiston mushoirasi” – ijodkorlarni bir davraga jamlagan, she’riyat orqali bugungi kun ruhini anglashga xizmat qilgan ma’naviy-ma’rifiy muloqot maydoni.

Ko‘hna Xiva yana bir bor so‘zga quloq tutdi. Bu so‘zlar asrlar sinovidan o‘tgan Vatan muhabbati, milliy qadriyatlar, insoniylik va ezgulik haqida edi.

“Yangi O‘zbekiston mushoirasi” ham ana shu ezgu maqsad — adabiyot va she’riyat orqali Vatanga muhabbat, milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarni yanada yuksaltirish yo‘lidagi go‘zal tashabbus sifatida Xiva adabiy hayotida o‘ziga xos iz qoldirdi.

Muhammadali G‘AFFOROV,
“Vatanparvar”




Muqaddas burch

YAXSHI KITOB — oqilona qaror

Askarlar bilan bo‘ladigan suhbatimiz har safar turlicha kechadi. Bir safar Vatan haqida gaplashamiz, yana bir safar sog‘inch haqida gurunglashib qolamiz. Kimdir onasidan kelgan maktubni so‘zlab beradi, kimdir sevgan qizi uchun yozgan she’rlarini o‘qib eshittiradi. Ba’zan esa bolalik xotiralari, orzular, kelajak rejalar haqida shunday qiziqarli suhbatlar bo‘ladiki, vaqt qanday o‘tganini sezmay qolamiz. Xullas, zerikish yo‘q. Bu galgi suhbatimiz esa kitob haqida bo‘ldi.

Hozirgi yoshlar kitob o‘qimaydi, degan tanqidni ko‘p eshitamiz. Ammo kitob o‘qiydigan yoshlar bilan gaplashsangiz, bu fikr yanglish ekanini anglaysiz. Chunki mutolaa qiladigan inson bilan suhbatning mavzusi ham, saviyasi ham o‘zgacha bo‘ladi. Kitob haqida bahslashar ekansiz, ba’zan suhbatdoshingiz askar ekanini ham, o‘zingiz uning tengdoshi emasligingizni ham unutib qo‘yasiz. Asar qahramonlari, taqdirlar, hayot saboqlari haqidagi bahs esa yosh bilan yoshning emas, fikr bilan fikrning muloqotiga aylanadi.

Ha, darvoqe, qahramonlarimizni tanishtirishni sal qolsa unutib qo‘yarkanman. Ular – Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining o‘quv jarayonini ta’minlash vzvodining muddatli harbiy xizmatchilari. Bugun ular mening emas, barchamizning qahramonlarimiz. Chunki ularning har biri armiyaga o‘z orzusi, bilimi, dunyoqarashi bilan ham kirib kelgan zamonaviy yoshlardir.



Har yili Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida “Yosh kitobxon” tanlovi o‘tkaziladi. Oddiy askar Komiljon Allayorov ham shu tanlov ishtirokchilaridan biri. To‘g‘ri, bu safar g‘oliblik unga nasib qilmadi. Ammo tanlovda ishtirok etganining o‘zi uning kitobga munosabati qanday ekanini anglatadi.

– Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanidanman, muddatli harbiy xizmatga chaqirilganman, – deya o‘zini tanishtirdi Komiljon. – Har bir bola bolalikdan ertak eshitib ulg‘ayadi. Onam aytgan ertaklar orqali kitobga qiziqishim ortgan. Opamning kitoblarini talashardim, shunda onajonim: “Hali shoshma, harflarni tanib ol, keyin senga ham ko‘p kitoblar hadya qilamiz”, deb ovutardi. Yillar davomida dadam va onam menga ko‘p kitoblar sovg‘a qilishdi. Faxrlanib aytishim mumkinki, hozir uyda yuzdan ortiq kitobim bor. Tanlovga tayyorgarlik jarayonida shu kunga qadar 25 dan ortiq kitob o‘qishga muyassar bo‘ldim.

Komiljonning eng sevimli asari Said Ahmadning “Ufq” romani ekan. Bu tanlov ham bejiz emas. “Ufq” inson va davr, taqdir va tanlov, mehnat va matonat haqida o‘ylashga undaydigan asar. Unda insonlarning turli taqdirlari orqali bir davrning murakkab manzaralari aks etadi. Komiljon asarni o‘qib, qahramonlar bilan birga yashagandek bo‘lishi ham shundan.

– Said Ahmad turli toifadagi insonlarni, ularning turfa taqdirlarini shunday ishonarli tasvirlaganki, kitobni yopganingizdan keyin ham qahramonlar xayolingizda yashayveradi, – deydi suhbatdoshimiz.



Aslida yaxshi kitobning qudrati ham shunda. Uni o‘qib tugatsangiz ham voqealar o‘quvchining tafakkurida davom etadi.

Oddiy askar Doniyor Abdumo‘minov bilan suhbatimiz esa bundan sal oldinroq, u “Bitta askar – bitta kasb” tamoyili asosida tashkil etilgan oshpazlik kursida tahsil olib yurgan paytlarida bo‘lgan edi. Bolaligidan taom tayyorlashga qiziqqan Doniyor maktabni tamomlagach, ma’lum vaqt oshpazlik bilan shug‘ullangan. Askarlik hayoti esa unga bu hunar sir-asrorlarini yanada chuqurroq o‘rganish imkonini berdi.

– Oshpazlik men uchun shunchaki xobbi, – deydi u suhbat davomida. – Aytishadi-ku, yigit kishiga qirq hunar oz deb. Kelajakda harbiy sohaning maxsus bo‘linmalarida xizmat qilishni maqsad qilganman. Armiya hayoti menga har tomonlama imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Shu jumladan, kitob o‘qishga ham vaqt topyapman. Bu oltin daqiqalarni menga berilgan imkoniyat deb bilaman.



Ha, bugun armiya saflarida har tomonlama yetuk, bilimga intiladigan yoshlar xizmat qilayotgani quvonarli. Bu holatni mamlakatimizda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan ayri tasavvur etib bo‘lmaydi. Bugun yoshlar orzu va maqsadlariga erishishning eng ishonchli yo‘li bilim va izlanish ekanini tobora chuqurroq anglab bormoqda. Oddiy askar Husanbek To‘raboyev ham ana shunday yoshlardan.

U hali maktabda o‘qib yurgan kezlaridayoq ingliz tili bo‘yicha xalqaro sertifikatdan 7 ballni qo‘lga kiritgan. Ingliz tilida bemalol muloqot qila oladigan Husanbek universitetning axborot resurs markazidagi xorijiy tildagi adabiyotlar bilan tanishishni yaxshi ko‘radi.

– Men yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanishga harakat qilyapman. Masofaviy o‘qish imkoniyatidan foydalanib, fan to‘garaklariga qatnashdim, bilimimni mustahkamladim. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi bo‘ldim. Ham harbiy xizmat, ham talabalik baxti – bu so‘z bilan ta’riflash qiyin bo‘lgan quvonch. Harbiy libos faqat qo‘lda qurol ushlab postda turish emas, balki ma’naviy yuksalish, o‘z hayotingni to‘g‘ri yo‘naltirish ekanini angladim.

Husanbekning kitob tanlovi ham uning dunyoqarashi haqida ko‘p narsani aytadi.

– Kichkinaligimdan sarguzashtlarga boy kitoblarni o‘qishni yaxshi ko‘raman. Eng yoqtirgan kitobim – Jek Londonning “Oq so‘yloq” asari. Undagi voqealar menga juda ta’sir qilgan. Aslida, yozuvchi bo‘ri-it taqdiri orqali inson tabiati, muhitning shaxsga ta’siri, ishonch va vafo kabi tushunchalar haqida so‘z yuritadi. Xizmatdan bo‘sh vaqtlarimda yana O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarini ham o‘qib chiqdim. Undagi voqealar xuddi mening hayotimdan olingandek tuyuldi.

Balki, shuning uchun ham kitob inson tarbiyasida shunchaki bilim manbai emas. U insonga o‘zini boshqa bir taqdirda, boshqa bir hayotda ko‘rish imkonini beradi. Jek London qahramoni bilan birga qiyinchilikni yengasiz, O‘tkir Hoshimov qahramonlari bilan birga ona mehrini, inson qadrini his qilasiz. Kitob insonni o‘zidan uzoqlashtirmaydi, aksincha o‘zini anglashga yaqinlashtiradi.



Yana bir qahramonimiz – oddiy askar Barkamol Qodirov. U ham harbiy xizmat davrida yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, Qo‘qon davlat universitetining iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi bo‘lish baxtiga erishgan. Barkamolning orzusi – kelajakda harbiy sohada malakali kadr sifatida xizmat qilish. Uning shaxsiy kitob javonida asosan tarix, huquq va ingliz tiliga oid kitoblar bor. Ammo hozir u Fyodor Dostoyevskiy ijodiga qiziqib qolgan.

– Dostoyevskiyning tili og‘ir, deyishadi. Lekin men uning asarlarini to‘liq o‘qib chiqishni maqsad qilganman. Ayni paytda “Jinoyat va jazo” kitobini o‘qishga kirishdim. Kitobning ilk sahifalaridanoq insonning ichki dunyosi, vijdoni, qilmishi va uning oqibatlari haqida jiddiy o‘ylay boshlar ekansiz.

Darhaqiqat, “Jinoyat va jazo” oddiy voqealar bayoni emas. U insonning tashqi harakati ortidagi ichki kurashini ochadi. Raskolnikovning ruhiy iztiroblari, o‘zini oqlashga urinishi, oxir-oqibatda qilmish va vijdon o‘rtasidagi ziddiyatga duch kelishi o‘quvchini bir savol oldida qoldiradi: inson o‘z xatosidan qochib qutula oladimi? Dostoyevskiyning asari bu savolga tayyor javob bermaydi. Aksincha, o‘quvchini o‘zi javob izlashga majbur qiladi. Kitobxonlikning eng katta qiymati ham shunda – u insonni fikrlashga o‘rgatadi.



“Inson har bir ishni bilim bilan boshlasa, nimaiki ish qilsa, tilakka yetadi”, degan mazmunda Yusuf Xos Hojibning fikrlari bor. Oddiy askar Nurjahon Namozov ham bu hikmatni hayot tajribasi orqali anglab borayotganini aytadi:

– Oilada to‘rt o‘g‘ilmiz. Akalarim o‘qimishli. Biri soliq sohasida, yana biri bank yo‘nalishida ishlaydi. Bankir akamga juda havas qilaman. Hali yosh bo‘lishiga qaramay, o‘z sohasida ancha yutuqlarga erishgan. Bir kuni ishxonasiga bordim. Stoli ustida Genri Ford nomi bilan bog‘liq “Время – деньги” kitobi turgan ekan. Shu kitobni o‘qisam, men ham bankir bo‘laman, deb o‘ylabman-da, bir nafasda o‘qib chiqibman. Lekin mutolaa menga boshqa narsani anglashimga sabab bo‘ldi. Undagi fikrlar vaqtning qadrini anglashga yordam berdi. Inson har bir daqiqasidan unumli foydalansa, oddiy ishdan ham katta natija chiqarishi mumkinligini tushundim. Faqat xohish va harakat bo‘lsa bas.

Nurjahonning gaplarida kitobxonlikning yana bir muhim jihati namoyon bo‘ladi: kitobdan mazmun izlash.

– Kitob o‘qish va uqish boshqa-boshqa narsa, – deya suhbatni davom ettiradi u. – Men har bir o‘qigan kitobimdan mazmun qidiraman. Ayni paytda Fitratning “Hind sayyohining qissasi” asarini o‘qiyapman. Kitob bizga tarixdan aks sado berib, ilmli bo‘lishga chorlaydi.

Bu gapni, balki suhbatimizning eng muhim xulosasi deyish mumkin. Chunki kitobxonlikning o‘zi hali maqsad emas. Muhimi, o‘qilgan sahifalar insonning fikrida, qarashida, xulqida aks etishi. Kitob o‘qish ko‘z bilan matnni ko‘rish emas, qalb va tafakkur bilan uni anglashdir.

Bugungi askarning qiyofasi kechagidan farq qiladi. Uning qo‘lida qurol, egnida harbiy libos bor. Ammo uning dunyosi faqat saf va postlar bilan cheklanmaydi. Uning qo‘lida kitob ham bor. U til o‘rganyapti, kasb egallayapti, oliy ta’lim olyapti, tanlovlarda ishtirok etyapti, xorijiy adabiyotlarni o‘qiyapti, tarix va huquq bilan qiziqyapti. Kimdir kelajakda maxsus bo‘linmada xizmat qilishni orzu qilsa, kimdir iqtisodchi bo‘lishga tayyorgarlik ko‘ryapti. Yana kimdir Dostoyevskiyning inson ruhiyati haqidagi murakkab olamiga kirib boryapti, boshqasi Jek Londonning “Oq so‘ylog‘i” orqali sadoqat va matonat haqida o‘ylayapti.

Xullas, askarlar bilan kitob haqida suhbatlashar ekanmiz, gap faqat adabiyot haqida emas, aslida ertangi armiya haqida ketayotganini his qilamiz. Zero kitob sahifalarida bugun ularning orzulari, ertangi kunning esa qiyofasi bitilmoqda.

Shohista ABDURAHMONOVA
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti

Islohot







MARDLIK VA SADOQAT MASKANI

Safda qad rostlagan yoshlarning nigohida qat’iyat bor. Ularning har bir harakatida intizom, har bir qadamida mas’uliyat seziladi. Bugun ular litsey o‘quvchilari. Ammo qalblaridagi maqsad aniq: kelajakda Vatan sarhadlarini himoya qiladigan bilimli, mard va sadoqatli harbiy xizmatchi bo‘lish.

Termiz shahridagi “Yosh chegarachilar” harbiy akademik litseyida kun erta boshlanadi. Belgilangan tartib, o‘quv mashg‘ulotlari, jismoniy tayyorgarlik va mustaqil ta’lim – bularning barchasi yoshlarni katta hayot hamda mas’uliyatli kasb sari tayyorlaydi. Bu yerda har bir daqiqaning o‘z hisobi, har bir vazifaning aniq maqsadi bor.

Chunki bugungi chegarachi faqat jismonan baquvvat harbiy xizmatchi emas.

U zamonaviy texnika va axborot texnologiyalarini puxta egallagan, huquqiy bilimlarga ega, murakkab vaziyatlarda tez va to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan mutaxassis bo‘lishi zarur. Demak, harbiy ta’lim ham davr talablari darajasida, nazariya va amaliyot uyg‘unligi asosida tashkil etilishi kerak.

Ana shu maqsadda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-avgustdagi tegishli qarori asosida 2021-yilda Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida “Yosh chegarachilar” harbiy akademik litseyi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Litseyning tashkil etilishi malakali harbiy kadrlar zaxirasini shakllantirish, yoshlarni harbiy kasbga maqsadli yo‘naltirish va nazariy ta’limni qo‘shinlar amaliyoti bilan uzviy bog‘lash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi.

Besh yil tarix uchun katta muddat emas. Ammo ana shu qisqa davr litsey jamoasi uchun izlanish, tajriba to‘plash va natijalarni namoyon etish yillariga aylandi. O‘quvchilar respublika miqyosidagi turli ko‘rik-tanlov va musobaqalarda ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarni egalladi. Bitiruvchilarning oliy va oliy harbiy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish bo‘yicha yuqori natija qayd etib kelayotgani esa bu yerda shakllangan ta’lim va tarbiya tizimining amaliy samarasidir.

Litsey hayoti oddiy maktab muhitidan farq qiladi. Bu yerda fanlarni o‘zlashtirish bilan birga harbiy intizom, jamoada harakatlanish, mas’uliyatni his etish va qiyinchiliklarga bardoshli bo‘lish ko‘nikmalari ham shakllantiriladi. O‘quvchi o‘z vaqti va imkoniyatlarini to‘g‘ri taqsimlashga, boshlagan ishini oxiriga yetkazishga o‘rganadi.

Bu maskanda o‘quvchilar uchun zarur ta’lim va maishiy sharoitlar yaratilgan. Ular yotoqxona, harbiy kiyim-bosh va oziq-ovqat bilan ta’minlanadi. Biroq bunday sharoitlar yoshlarga berilgan imkoniyat bo‘lishi bilan birga ular zimmasiga katta mas’uliyat ham yuklaydi. Chunki davlatning g‘amxo‘rligiga munosib javob qaytarish, bilim olish, intizomga rioya qilish va Vatan xizmatiga tayyor turishda namoyon bo‘ladi.

Litseyga umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlarning 9-sinfida o‘qiyotgan, sog‘lig‘i bo‘yicha yaroqli va saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan o‘g‘il bolalar qabul qilinadi. Ikki yillik ta’lim davomida o‘quvchilar aniq fanlar yoki ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish bo‘yicha tahsil oladi. Birinchi yo‘nalishda matematika va fizika, ikkinchisida davlat va huquq asoslari hamda chet tili fanlari chuqurlashtirib o‘qitiladi.

Bu fanlarning tanlanishi bejiz emas. Chegara xavfsizligini ta’minlashda aniq hisob-kitob, texnik vositalarni tushunish, huquqiy bilim va xorijiy tillarni bilish muhim ahamiyatga ega. Shu ma’noda litseydagi har bir fan o‘quvchining kelgusi kasbiy faoliyati bilan bog‘liq holda o‘rgatiladi.

Harbiy kasbni tanlash — shunchaki havas yoki tashqi joziba ta’sirida qabul qilinadigan qaror emas. Shu bois litseyga qabulda nomzodning bilimi bilan bir qatorda sog‘lig‘i, jismoniy tayyorgarligi va kasbga bo‘lgan intilishi ham baholanadi. Dastlabki hamda harbiy-kasbiy saralashdan o‘tgan nomzodlar 5–9-sinf ta’lim dasturlari asosida tuzilgan test sinovlarini topshiradi.

Qabul jarayonida fan olimpiadalari va sport musobaqalari g‘oliblari, tegishli milliy yoki xalqaro sertifikatlarga ega yoshlar uchun muayyan imtiyozlar belgilangan. Shuningdek, xizmat vazifasini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan yoki jarohat oqibatida nogiron bo‘lib qolgan harbiy xizmatchilarning farzandlari, yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Litseyni imtiyozli diplom bilan tamomlagan yoshlar uchun Amir Temur nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasi yoki Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining chegara yo‘nalishida tahsilni davom ettirish imkoniyati mavjud. Boshqa oliy harbiy, ixtisoslashtirilgan va davlat ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishda ham bitiruvchilar uchun belgilangan tartibda qo‘shimcha imkoniyatlar taqdim etiladi.

Biroq litsey faoliyatiga faqat imtiyoz va raqamlar nuqtayi nazaridan baho berish to‘g‘ri emas. Uning eng muhim natijasi – yoshlarning dunyoqarashi, hayotga munosabati va mas’uliyat hissidagi o‘zgarish. Bu yerda ular Vatan tushunchasining mazmunini darsdagi ta’riflar orqali emas, kundalik intizom, mehnat va burchga sadoqat orqali anglaydi.

Chegara – xaritadagi oddiy chiziq emas. U davlat mustaqilligi, xalq osoyishtaligi va yurt sha’nini ifodalaydigan muqaddas hududdir. Uni qo‘riqlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan yosh esa bu kasbning sharafi bilan birga mashaqqati va mas’uliyatini ham chuqur his etishi lozim.

Bugun litsey hovlisida qat’iy qadam tashlayotgan yoshlar ertaga mamlakatimizning turli sarhadlarida xizmat qilishi mumkin. Ularning qay darajada bilimli, irodali va vatanparvar bo‘lib yetishishi yurtimizning kelgusi xavfsizligi bilan bevosita bog‘liq.

Shu ma’noda “Yosh chegarachilar” harbiy akademik litseyi faqat kelajak ofitserlarini tayyorlaydigan ta’lim muassasasi emas, balki Vatan oldidagi burchini teran anglaydigan, tinchlikning qadrini biladigan va uni himoya qilishga tayyor avlod kamol topayotgan ma’rifat maskanidir.

Litseyda tahsil olish istagidagi nomzodlarning arizalari 5-sentabrdan 5-oktabrga qadar yashash yoki o‘qish joyi bo‘yicha Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlariga qarashli harbiy qism va bo‘linmalarda qabul qilinadi.

Kapitan Erkin YODGOROV
DXX Chegara qo‘shinlari







Turkiston jadidlari

QATAG‘ON AZOBI

Sho‘rolar tuzumi qatag‘on qilgan minglab kishilarning ayanchli taqdiri bizga yaxshi ma’lum. Bu qattol siyosatning ko‘rinishi respublikamizning chekka qishloqlarida ham sodir bo‘ldi.

Birgina Qamashi tumanidan o‘tgan asrning 30–50-yillarida turli ayblar bilan jazolangan, otuvga hukm qilingan, yurtidan quvg‘in qilingan millatdoshlarimiz ko‘p bo‘lgan.

Nodir komandirning “dum”i

Qatag‘on mashinasi, hatto o‘ziga sadoqat bilan xizmat qilgan kishilarni ham ayab o‘tirmadi. Bunga misol qilib, Qoratepalik Nodir Pardayevni aytishimiz mumkin. El-ulus orasida Nodir komandir deb nom olgan bu shaxs ham oxir-oqibat yo‘q qilindi. Hatto atoqli shoir G‘afur G‘ulom uning jasorati va ibratli ishlari haqida “Nodir komandir” nomli ocherk ham yozgan edi. Xuddi, shuningdek Qoratepa qishloq sho‘rosining raisi bo‘lgan va Sanchiqul qishlog‘ida yashagan Mahmatqobil Avazov ham o‘sha yillarning begunoh qurboni bo‘lgan. Mahmatqobil boboning xotini Karomat momo boshqa turmushga chiqmadi. Yostiqdoshidan yodgor bo‘lib qolgan qizlari Bibisora va Izaypalarni oq yuvib, oq tarab, voyaga yetkazdi va bir umr turmush o‘rtog‘ining yo‘liga ko‘z tikib o‘tdi.

Ayniqsa, Sanchiqul qishlog‘idan bo‘lgan uch aka-ukalar Abdusalom, Abdusattor va Abduvahob Suyunovlarning taqdiri o‘ta ayanchli kechdi. Ularning 9 kishidan iborat oilasi shimoliy Qozog‘iston dashtlariga badarg‘a qilindi va oila a’zolaridan oradan yillar o‘tib, faqat birgina Jovli Suyunovgina tug‘ilgan qishloqqa qaytib keldi. Eng qizig‘i, Jovli bobo O‘zbekiston xalq baxshisi chiroqchilik Shomurod baxshi Tog‘ayevning oilasi bilan surgunda birga bo‘lgan va ular o‘sha og‘ir yillarda aka-uka tutingan.

– Onamning akasini Chorshanbi chavandoz der edi. Shu bois bo‘lsa kerak, katta to‘ylarning ko‘pkarisi Chorshanbi chavandozsiz o‘tmas ekan. Sho‘ro hukumati tog‘amni o‘ziga yarasha mol-mulki, ya’ni to‘rt-besh bosh qo‘y-echkisi, sigiri va oti borligi uchun quloq qilib Sibirga haydagan. Shu-shu u kishi yurtiga qaytib kelmagan, – deya so‘zlaydi mehnat faxriysi Berdiqobil Xudoyqulov. Yuqorida qayd etilgan jabrdiydalarning barisiga “Nodir komandirning dumi” degan soxta ayb qo‘yilgan.

Aybsiz aybdorlar

Insoniy huquq va erkinliklari poymol bo‘lganlardan biri Chim qishlog‘idan bo‘lgan Hazratqul Hakimov bo‘ldi. Bu insonning ayanchli taqdiri haqida uning o‘g‘li Maksim Hakimov shunday hikoya qilgandi.

– Otam Hazratqul Hakimov 1889-yilda tug‘ilgan. Bobom Hakim Yusupov xat-savodli bo‘lgani bois o‘g‘illarini ham o‘qitgan. Otam dastlabki saboqni uyda olgan. So‘ngra Qarshi va Buxoro madrasalarida tahsilni davom ettirgan. Otam uquvli bo‘lgani uchun Chiroqchi tumanida revkom va sudya bo‘lib ishlagan. Ularni 1937-yil 10-dekabrda “Quloqning bolasi, inqilob dushmani” degan ayb bilan qamoqqa olishib, Kitob tumanidagi qamoqxonada saqlashdi.

So‘ngra Sibirga jo‘natib yuborishdi. O‘sha paytlarda yosh bola edim, ulg‘ayib savodli bo‘lgach, otam haqida ko‘p surishtirishlar, yozma so‘rovlar qildim. Mana o‘sha so‘rovnomamga berilgan javobning biri.

“Tojikiston SSR Davlat Xavfsizligi komiteti. 25.05.89. 9/4563, Dushanbe.

O‘zbekiston SSR, Qashqadaryo viloyati, Chim qishloq sovetida yashovchi Hakimov M.H.ga.

Sizning yozgan arizangizga asosan, shuni yozib ma’lum qilamizki, Hakimov Hazratqul Tojikiston SSR NKVD UGB Uchligining 10-dekabr 1937-yildagi qaroriga asosan, aksilinqilobchilik harakatiga qo‘shilgani uchun qamoqqa olingan.




Surat sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

SSSR PVS farmoniga asosan, “30–40- va 50-yillarning boshida repressiya qurbonlari bo‘lganlar bilan bog‘liq hujjatlarni o‘rganish va ularning nomini tiklash bo‘yicha qo‘shimcha tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga asosan, 1994-yilda Tojikiston SSR prokurori u bilan bog‘liq jinoiy ish hujjatlarini ko‘rib chiqdi va oqlanganini ma’lum qiladi. Tojikiston SSR KGB bo‘lim boshlig‘i S. Kamolov”.

– Turmush qurganimga 4 yil bo‘lgan edi, – deb eslaydi tog‘alarining boshiga tushgan achchiq qismatini rahmatli Oyna momo Xudoyberdiyeva.

– Nabi Sanayev, Jabbor Hakimov, Hazratqul Hakimov, Ovloqul Hakimov kabi tog‘alarimni “xalq dushmani”, deb birin-ketin hibsga olishdi. Tog‘alarim bilan Abdurahmon Do‘stov, Salomatxon eshon O‘zbekov, Tilov sichqon Jo‘rayevlar ham qamaldi.

Bexosdan it hursa ham rangimiz o‘chib, “dir-dir” qaltirardik. Chunki militsiyaning kelishidan yurak oldirgan edik-da... Buyam yetmagandek qaynotam Tillo Ismoilovni ham qamoqqa olishdi. Xo‘jayinim Saydulla Tillayev tuyakashlik qilar edi. Joyi jannatda bo‘lgurlarning barisi rahmatlik bo‘ldi. Shulardan bitta – Nabi tog‘am Sanayev uzoq yillardan keyin qishloqqa qaytib keldi.



Ayanchli taqdir

Ikkinchi jahon urushidagi janglarining birida oddiy askar Juma Xushvaqtov dushman qo‘liga asir tushib qoldi. Asirlikning azoblarini boshdan kechirgan yigitni amerikalik ittifoqdoshlar qo‘shini dushman zulmidan ozod qildi. Juma yurtiga qaytishni istardi. Ammo o‘sha yillarda asirda bo‘lganlarga nisbatan “xoin” degan hukm chiqarilgan edi. Shu bois uning ham yurtiga qaytishga yuragi dov bermadi.

Baribir yurt sog‘inchi ustunlik qildi. Jumani chegaradan o‘tishi bilan hibsga olishdi va Uzoq Sharqdagi Vladivostok shahriga olib kelishdi hamda 25 yil muddatga ozodlikdan mahrum etishdi.

Jumaning joni toshdan qattiq ekan. Jazo muddatini o‘tagandan so‘ng unga Amur va Xabarovsk o‘lkasida yashashga ruxsat berishdi. Lekin O‘zbekistonga borishga izn berishmadi. Juma begona yurtda uylanib, ikkita o‘g‘il ko‘rdi. Ammo uni yurt sog‘inchi, ota-onasi, yaqinlarining diydorini ko‘rishga bo‘lgan dard tinimsiz qiynardi. Nihoyat, 1962-yilda unga Ko‘kbuloqdagi ona qishlog‘i Chuqurliga kelishga ruxsat berishdi. Uni qarindosh-urug‘lari katta xursandchilik bilan kutib olishdi. Lekin Jumaning ko‘zlari otasi mulla Xushvaqtni va onaizori Qambar Yuzboy qizi va singillarini qidirayotgan edi. Oxiri u atrofidagilardan ota-onasini so‘radi.

– Ota-onam bu yorug‘ olamdan o‘tganmi?

– Yo‘q, – dedi qishloq sho‘rosi raisi Niyozov.

– Otang tirik, onang esa sendan “qoraxat” kelgach, ayriliqni ko‘tara olmadi...

– Rajabboy! – deya yigitlardan birini yoniga imladi rais.

– Otni minib, to‘g‘ri Chilikgazadagi bug‘doyzorga bor va mulla Xushvaqtni olib kel. Ammo esingda bo‘lsin, zinhor “O‘g‘lingiz keldi!” degan gapni qilma. O‘zimiz yo‘lini qilib, yotig‘i bilan ko‘rishtiramiz.

Ammo Rajabboy degani dovdir yigit edi. Mulla Xushvaqt betoqat bo‘lavergach, sirni oshkor qilib qo‘ydi va bu xushxabarni eshitgan otaning yuragi yorilib, jon rishtasi uzildi. Quvonchlar yana motamga aylandi. Juma otasini o‘z qo‘li bilan dafn etib, yetti kundan so‘ng Uzoq Sharqqa jo‘nab ketdi.

Shundan keyin ham u xotini va o‘g‘illari bilan qishlog‘iga uch marta keldi. Juma Xushvaqtov oxirgi kelishida ancha mung‘ayib qolgan, rangi zahil tortib, asirlik azoblari ta’sirini o‘tkazgani bilinib turar edi. U ketar chog‘ida ota va onasi yotgan qabristondan bir siqim tuproq oldi va boshqa qaytib kelmadi. Otasi vafot etgach, uning o‘g‘illari Vladimir va Aleksandrni mahalliy bezori bolalar “xoinning o‘g‘li” deb otib o‘ldirishgan ekan. Ayriliqni ko‘tara olmagan xotini ham bir yil o‘tar-o‘tmas olamdan ko‘z yumdi.

Nikoh o‘qigani uchun...

– Otam Mulla Ibrohim Shernazar o‘g‘li Buxorodagi Mir arab madrasalarida tahsil olgan kishi edi, – deya so‘zlaydi Ismoil hoji Ibrohimov. – Otam sho‘rolar hokimiyat tepasiga kelgach, savodli bo‘lgani uchun hukumat ishiga jalb qilingan va Chiroqchi tumani moliya idorasini boshqargan.

50-yillar boshida uyimizga nagan taqqan kishilar kelib, otamni olib ketishdi. Keyin bilsak, otamning ustidan chaquv xati yozilgan ekan. Xatda otamning qishloqdoshi bo‘lgan Abil va Xoldon degan ikki yoshning to‘yida eskicha nikoh o‘qigani bayon qilingan edi. Axir nikohsiz oila qurib bo‘ladimi? Chaquv xatini esa begonalar emas, o‘zimizning qishloqdoshlarimiz yozishgan ekan. Otam uch yil Qarshi va Ashxobod qamoqxonasida yotdi. Men o‘shanda o‘n bir–o‘n ikki yoshlardagi bola edim. Onam bilan ikki bora otamni ko‘rgani borganim yodimda. Nihoyat, otam Stalin vafot etgach, qishloqqa qaytib keldi. Uyimizda arab va fors tilida yozilgan kitoblar ko‘p edi. Lekin otam menga eskicha ilmni o‘rgatmadi. Bunga, balki, ilmi bois boshiga tushgan achchiq savdolari sabab bo‘lgandir... Maktabni bitirib, xo‘jalikda cho‘liq, suvchi bo‘lib ishladim. Keyin shofyorlikka o‘qib, mashina haydadim. Yangi tuzilgan brigadada tabelchi, so‘ngra ko‘p yillar paxtachilik brigadasini boshqardim. Ilg‘or bo‘ldim, orden-medallar oldim.

Nafaqaga chiqdim. Istiqlol bergan imkoniyat tufayli birinchilardan bo‘lib muborak haj safariga borib keldim. Otam yetmagan baxtga erishdim...

Alam va xo‘rlik

– Otam Bolta Sarmatov bolsheviklarning g‘oyalariga ishongan, sho‘rolar tuzumining faoli bo‘lgan. Jamoa xo‘jaligini tuzish, savodsizlikni tugatish kabi ishlarda faol qatnashgan. Chiroqchi tumani ichki ishlar bo‘limi zobiti lavozimida xizmat qilgan. Ikkinchi jahon urushi janggohlarida ishtirok etib, yarador bo‘lib uyga qaytgan. Sog‘lig‘i tiklangach, yana frontga ketdi. Kenisberg shahri uchun bo‘lgan shiddatli jangda og‘ir yarador bo‘lib yana Vataniga qaytdi. O‘tgan asrning 50-yillarida otamni qamashdi. Aybi nima ekanini bizga ham aytmagan. Balki, otamning to‘g‘riso‘zligi, ko‘zi ochiqligi bunga sabab bo‘lgandir, deb o‘ylayman. 1953-yildagi afv tufayli otam uyga qaytdi.

Ular doim miskin kayfiyatda yurardi. Bunga o‘zi jon berib, jon olgan tuzumdan ko‘rgan azoblari, xo‘rlanishlari sabab bo‘lgandir. Otam qamoqdan qaytib, o‘zining barcha orden-medallarini, maqtov yorliqlarini yo‘q qilib tashlab, hukumat bergan barcha imtiyozlardan voz kechib, bozorda savdo-sotiq bilan mashg‘ul bo‘ldi va bor e’tiborini o‘g‘il-qizlarining oliy ma’lumotli bo‘lishiga qaratdi, – deya so‘zlaydi faxriy quruvchi Bekjon Boltayev.

Ha, afsuski zolim qatag‘on yillari minglab yurtdoshlarimiz taqdirida ana shunday qonli izlarini qoldirib o‘tdi.

O‘rolboy QOBIL,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi



Ehtirom

FIDOYI ZOTLARGA TA’ZIM

“Sizlar dunyodagi eng bebeho boylik va boqiy merosni yaratish, uni xalqimizga, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizga bezavol yetkazish yo‘lida chinakam fidoyilik ko‘rsatib mehnat qilayotgan ulug‘ insonlarsiz. Bu ulkan boylik – aql-zakovat va ilm, bu o‘lmas meros – yaxshi tarbiya”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev



Suratlar sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

Hayotda necha ming tur kasb-hunar bo‘lsa, barchasida ustozlarning tengsiz o‘rni bor. Mana shu kasb-hunarlar avvalida xokisor va fidoyi murabbiya va muallimlar turishi barchamizga ayon. Har qanday insonning hayotida tarbiyachisi yod oldirgan ilk she’r, muallimning ilk alifbo saboqlari muhrlanib qoladi. Ha, jajji yuraklarga singigan bu saboqlar umrsherikdir. Negaki, o‘g‘il-qizaloqlarning ilk jamiyatga qo‘shilishi, ta’lim-tarbiya olishdagi ilk qadami bog‘chadan va maktabdan boshlanadi.

BARKAMOL AVLODGA E’TIBOR – ULUG‘ QADRIYAT

Dunyo yaralibdiki, bir haqiqat hamisha ustuvor bo‘lib kelgan. Ya’ni millat borki, kelajak avlod deb, uning nurli istiqboli deb harakat qiladi. Millat borki, farzandlarini qaddi tik, ko‘ksi baland, baxti to‘kis bo‘lishini istaydi. Chunki sog‘lom, durkun, bilimdon avlodgina milliy qadriyatlarini e’zozlaydi, Vatanini asraydi, uning tinchligi va hurligini or-nomusida, jonida tutadi. Ona zaminini kelgusi avlodga benuqson yetkazishga intiladi. Shu sabab davlatimiz tomonidan kelajak avlod istiqboliga ulug‘ qadriyat sifatida e’tibor qaratilayotgani bejiz emas.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, insondagi fe’l-atvor tug‘ma bo‘lib, undagi xulq-atvornigina o‘zgartirish – tarbiyalash mumkin ekan. Bu ham bo‘lsa, besh yoshga qadar. Farzandlarimizni ayni shu yoshda oila, yoki maktabgacha ta’lim muassasalari bag‘rida bo‘lishini inobatga olsak, bu ota-ona va tarbiyachi murabbiyalarimiz ilkiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Bugungi kunda o‘g‘il-qizlarimizning ta’lim-tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan bog‘cha va maktablarimizdagi shart-sharoit, tarbiyachi va muallimlar oldiga qo‘yilgan talab va tavsiyalar yosh avlodning chuqur bilim, milliy qadriyatlarimizga mos ta’lim-tarbiya olishida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Shuni alohida ta’kidlashni istardimki, ustozlik maqomidan ulug‘ zahmatli va sharafli kasb bo‘lmasa kerak. Bir haqiqat ayonki, qaysi bir soha vakili bo‘lmasin, ularning xizmatida ustozlarning ulkan ulushi bor. Shu sabab ma’rifat fidoyilari bo‘lmish o‘qituvchi-pedagoglarni ulug‘ zotlar, deya ta’riflaymiz. Sahih hadislardan birida keltirilishicha, “Yer-u ko‘kdagi barcha jonzotlar, dengizdagi baliqlar, Yaratgan egam ham ustoz murabbiyga salovat aytadi” *(Imom Termiziy)* deyilgan.

Bu o‘z kasbining fidoyisi bo‘lgan ustozlarga munosib ta’rif. Ular nafaqat o‘quvchilarga saboq berishda, balki ma’naviyat va madaniyat borasida ham komil va kamtarin insonlardir. Shuningdek, ularni sinfdagi o‘ttizdan ziyod o‘quvchining fe’l-atvorini o‘zlashtirgan, har biri bilan o‘ziga xos munosabatda bo‘ladigan ruhshunoslar, desak, yanglishmaymiz. Shu ta’rifga misol tariqasida hayotda o‘rin topgan bir insonning ustozi haqidagi fikrini keltirishni lozim topdim:

– To‘qqizinchi sinfda tahsil olayotganimda otamdan ayrilib qoldim. Kutilmagan bu ayriliq menga ruhan zarba bo‘ldi. Eng yomoni, o‘sha kuni dadamning menga bergan tanbehidan achchig‘lanib, eshikni qattiq yopib ko‘chaga chiqib ketgandim. Ko‘p o‘tmay, uning yuragida o‘zgarish bo‘lib, olamdan o‘tgan xabarini eshitdim. O‘sha kuni go‘yoki boshimga tog‘ ag‘darildi. Odamovi, o‘ychan bolaga aylandim. Fanlardan baholarim pasayib ketdi, ko‘ksimdagi dardni hech kim bilan bo‘lisha olmasdim. Miyamda faqat bir o‘y aylanardi: “Men dadamni ranjitdim, munosabatimni yuragiga qattiq olgani aniq. Shuning uchun...”

Shunday kunlardan birida sinf rahbarimiz, til va adabiyot fani o‘qituvchisi Husanjon aka Nosirov darsda Vatan haqida erkin insho yozishga topshiriq berdi. Hamma o‘quvchilar insho yozishga kirishib ketdi. Men oppoq qog‘ozga termilgancha jimman. Shunda ustozim oldimga kelib, boshini xiyol eggan ko‘yi qulog‘imga “Sen dadang haqida yozsang ham bo‘ladi, otalarda ham Vatan timsoli bor”, dedi asta. Men ustozning maqsadini tushundim va dadam bilan bog‘liq xotiralarni yozishga kirishdim. To‘g‘rirog‘i, dil dardimni qog‘ozga to‘kdim. Chunki buni ustozimdan boshqa odam o‘qimasligiga ishonardim. Ko‘ksimda anchayin yengillik sezdim. O‘sha kuniyoq ustozim darsdan so‘ng men bilan alohida suhbatlashdi, o‘git va maslahatlar berdi. O‘zimni qo‘lga olib, faol o‘quvchilar safiga qo‘shilganimga qadar ruhan tayanch bo‘ldi. Bu hayotimdagi ijobiy o‘zgarishlarga katta zamin yaratdi. Bunday ezgulikka faqat ustozlargina qodir deb o‘ylayman

Darhaqiqat, muallim-pedagoglar o‘zidagi bor bilim va tarbiya, ma’naviyat va ma’rifatni o‘quvchilarga singdira oladigan fidoyi kasb egalaridir. Zalvorli tariximiz, dunyoga bo‘y ko‘rsatayotgan bugunimiz, ulkan yangilanishlarga intilayotgan nurli istiqbolimizni yosh avlodga yetkazish, singdirish ularning qo‘lida. Ustozlarning o‘quvchilarni bir ko‘zda ko‘rib, odillik ila bergan har bir sabog‘i, o‘git va tavsiyasi millat istiqbolida ulkan o‘zgarishlar yarata oladigan yengilmas kuchdir.



Yurtboshimiz ta’rifi bilan aytganda: **“Jamiyatimizda bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, oliygohlarning professor-o‘qituvchilari va ilmiy-ijodiy ziyolilari bugun biz intilayotgan Uchinchi Renessansning to‘rt tayanch ustuni deb e’tirof etmoqdamiz”.**

Tarbiyachi murabbiylar, o‘qituvchi-pedagoglarning jonkuyarligi, zahmatli mehnati borasida uzoq so‘z yuritish mumkin. Davlatimiz tomonidan 1-oktabr – Ustoz va murabbiylar kuni deb e’tirof etilgani, ulug‘ ayyom sifatida nishonlanayotgani ham muhtaram kasb egalarining e’zozga yor ekanidan dalolat. So‘nggi so‘zimiz: “Aziz ustozlar, Sizning tog‘dek sabotingiz, ma’rifat yo‘lida chekkan zahmat va fidoyiligingiz oldida barchamiz ta’zimdamiz. She’riy satrlar bilan muxtasar etganda:

Ustozim – umrimni yoritgan ziyo,
Nurli chehrangizdan nur olar dunyo,
Siz zamin quyoshi yog‘dular aro,
Bu kun ziyolarning ta’zimi Sizga.

Mehringiz taftidan hayot munavvar,
Jonfido onasiz, ham aziz padar,
Ilm-u urfoningiz yetgan oy qadar,
Yuksak fazolarning ta’zimi Sizga.

Siz borki, ma’rifat so‘nmagay abad,
Haqiqat bukilmas, mangu hurriyat.
Muhabbat yashaydi, yashar she’riyat,
Ezgu dunyolarning ta’zimi Sizga.

Siz-la jo ayladim, yurtim faxrini,
Elim qudrati-yu, tilim qadrini,
Avlodim pok saqlar ulug‘ naslini,
Ahli vafolarning ta’zimi Sizga.

Ma’murlik yo‘lida tinchimas jonsiz,
Yurtning qudratini tutguvchi shonsiz,
Kamolot bahrida bag‘ri ummonsiz,
Teran daryolarning ta’zimi Sizga.

Dunyoni tebratar da’vatlaringiz,
Yurtga mardlar berar zahmatlaringiz.
Olim-u xoqondir farzandlaringiz,
Ulug‘ daholarning ta’zimi Sizga.

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

Xalqparvarlik

Madaminbek – lashkarboshi, siyosatchi, mohir diplomat



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Turkiston istiqloli uchun fidoyi kurashchi Madaminbekning ulug‘ nomini xalqimiz doimo mehr-muhabbat bilan tilga olib kelmoqda, uning xotirasini qalbining to‘rida saqlamoqda.

Madaminbekning asl ismi Muhammad Aminbek Ahmadbek o‘g‘li bo‘lib, u 1892-yili Marg‘ilon atrofida – hozirgi Toshloq tumanining Sadda qishloq fuqarolar yig‘ini hududidagi So‘kchilik qishlog‘ida o‘rtahol oilada tug‘ildi.

Madaminbekning otasi Ahmadbek o‘rta bo‘yli, to‘ladan kelgan chiroyli odam bo‘lganini marg‘ilonliklar yaxshi eslashadi. Ahmadbekning besh farzandi bo‘lib, Madaminbek ularning eng kenjasi edi. Madaminbekning Maqsudali va Mamadali ismli ikki akasi, Mehriniso va Mayramniso ismli ikki opasi bo‘lgan. Ota-onasi o‘z davrining savodli va bilimdon kishilari, mahalla-ko‘y, qarindosh-urug‘lar davrasida boobro‘ odamlar bo‘lishgan. Ana shunday ma’rifatli oilada voyaga yetgan Madaminbek to‘g‘riso‘zli, do‘stlariga sadoqatli, mulohazali va diyonatli yigit bo‘lib o‘sdi.

Madaminbek Birinchi jahon urushi arafasida chor Rossiyasi hukmronligiga qarshi bosh ko‘taradi. 1914-yili qamoqqa olinadi. Sud Madaminbekning o‘zi tan olmagan ayblar – qotillik va o‘g‘rilikni ham unga to‘nkab, 14 yilga Sibirdagi Nerchinsk degan joyga katorgaga hukm qiladi. 1917-yili Fevral inqilobidan keyin siyosiy mahbus sifatida Madaminbek ozodlikka chiqadi va Marg‘ilonga qaytib keladi. “Sho‘royi ulamo” jamiyatining rahbarlari Madaminbekni shahar mirshablari boshlig‘i – qo‘rboshisi lavozimiga bejiz tavsiya etishmaydi. Agar u qotil va o‘g‘ri bo‘lganida, nufuzli ulamolar va ziyolilar unga bu lavozimni taklif qilishmas edi. Sovet rejimi yillarida Madaminbek va boshqa qo‘rboshilarga “o‘g‘ri”, “bosqinchi”, “bandit” degan sun’iy yorliqlarni yopishtirish odat tusiga kirgan edi.

Turkistonda bolsheviklar hokimiyatni zo‘ravonlik bilan egallagach, Farg‘ona viloyati harbiy komissari K. Osipov Madaminbekni Marg‘ilon militsiyasi boshlig‘i etib tayinlash haqidagi buyruqqa qo‘l qo‘yadi va uni qurol-yarog‘ bilan ta’minlaydi. 1918-yil yanvar oyining oxirigacha Madaminbek shu lavozimda xizmat qiladi.

Biroq sovet rejimining xalqqa qarshi siyosati Madaminbekni ozodlik uchun kurashga undadi. 1918-yil mart oyining boshlarida Madaminbek o‘z militsionerlari bilan istiqlolchilar safiga o‘tdi. Madaminbek ayrim siyosatdonlar va tarixchilar hozir ham da’vo qilayotganlaridek, Qo‘qon xoni bo‘lish uchun emas, balki yurtida tinchlik o‘rnatish va bosqinchilarga qarshi kurashish uchun qo‘liga qurol tutdi. Madaminbek atrofida Marg‘ilon va Toshloqdagi jasur chapani yigitlar to‘plandi. “Yakkatut bo‘lisi Garbuva *(Garbobo)* qishlog‘idagi Madaminbek guruhining qarorgohiga ommaviy ravishda mahalliy yoshlar kelib qo‘shilardi”, deb yoziladi 1918-yilgi rasmiy hujjatlarning birida.

1918-yilning bahorida Madaminbek qo‘l ostida dastavval 1 000–1 500 yigit to‘plandi. “Dehqondan so‘nggi yaktagini ham tortib olgan” sho‘ro hokimiyatiga qarshi kurashish Madaminbekning asosiy matlabi bo‘lgan. Milliy ozodlik harakati safiga Madaminbek singari salohiyatli sarkardaning qo‘shilishi juda katta ahamiyatga ega edi.

“O‘z oldiga sovet hokimiyatini ag‘darish va Farg‘ona Muxtoriyatini tiklash vazifalarini qo‘ygan Madaminbek tadbirkor siyosatchi va uddaburon tashkilotchi fazilatlariga ega edi”, deb tan olinadi o‘sha davrga oid rasmiy hujjatlarning yana birida.

Madaminbek yigitlari o‘rtasida harbiy intizom kuchli edi. Madaminbekchilar bosqinchi va o‘g‘rilarni o‘zlari ushlab jazosini berishardi. Masalan, “1919-yil boshida Toshloqda Is’hoq ishboshi va Tojibek kunjarafurush mayda bosqinchilik guruhlarini tuzgani uchun Madaminbek yuborgan odamlar tomonidan otib tashlandi”. Madaminbek siymosida sarkardalik, davlat va siyosat arbobiga xos sifatlar o‘zaro mujassam bo‘lgan. U Farg‘ona vodiysidagi istiqlolchilarning tan olingan yo‘lboshchisi edi. Madaminbek vodiydagi sovet hokimiyati organlariga muqobil ravishda o‘z siyosiy boshqaruv usulini o‘rnatdi. Bunday boshqaruv usulini yana Farg‘ona vodiysida Katta Ergash va Shermuhammadbek, Buxoro Respublikasida Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor, Anvar Posho va Salim Posho, Xorazm Respublikasida esa faqat Junaidxon kabi sardorlargina joriy etgan edi.

1918-yil noyabr oyining boshida Andijon uyezdidagi Oyimqishloqda bo‘lgan Farg‘ona vodiysi qo‘rboshilarining qurultoyida Katta Ergash qo‘rboshi o‘rniga istiqlolchilarning Oliy bosh qo‘mondoni qilib Madaminbek saylandi. Uning o‘rinbosarlari qilib Katta Ergash *(taxminan 1882–1921)* va Shermuhammadbek *(1893–1970)* tayinlandi.

Madaminbek 1918-yilning oxiridayoq mustaqillikka urinayotgan yirik qo‘rboshilarning faoliyatini boshqarishga muvaffaq bo‘ldi. Shermuhammadbek, Nurmuhammadbek, Xolxo‘ja Eshon, Mahkam Hoji, Rahmonqul, Omon Polvon va qirg‘iz mujohidlarining boshlig‘i Muhiddinbek singari qo‘rboshilarni yagona qo‘mondonlik ostiga birlashtirish undan juda katta kuch-g‘ayratni talab etdi. O‘z qishlog‘i va tumanida “o‘zi bek” bo‘lgan bu qo‘rboshilarning qarshiligi va o‘zboshimchaligini Madaminbek sindirishga erishdi. U Xolxo‘ja Eshonning shuhratparastligi va kaltabinligiga qarshi ancha kurashdi. Katta Ergash qo‘rboshi bilan Madaminbekning munosabatlari ham tez-tez o‘zgarib turardi.

Madaminbek qo‘shini safida xalqning barcha tabaqalariga mansub kishilar bor edi. “Madaminbek boylar va mahalliy aholi tomonidan to‘la ravishda qo‘llab-quvvatlanmoqda”, deb aytgan edi 1918-yil oktabrda Marg‘ilon shahrining favqulodda komissari Sugrubov. “Madaminbek har qanday aksilinqilobchi va sovetlardan norozi odamni, u qaysi millat vakili ekanligi va diniy e’tiqodidan qat’i nazar, xursandlik bilan kutib olardi”, – deyiladi boshqa bir rasmiy hujjatda.

Madaminbek qisqa muddat ichida o‘z atrofiga aqlli maslahatchilarni to‘pladi va ular ko‘magida yaxshi tayyorlangan xodimlarni Farg‘ona vodiysining hamma joylariga o‘z vakillari sifatida yubordi. Madaminbek yuborgan bunday vakillar vodiyning barcha shaharlari, katta qishloqlarida bo‘lib, tub xalqlarni mustabid sovet rejimi va bosqinchi qizil armiyaga qarshi kurashga oyoqlantirdi.

“Madaminbek turli siyosiy oqimdagi kishilarni birlashtira oldi. Shuning uchun ham hech qaysi qo‘rboshi uningchalik kuch-qudratga ega bo‘lmagan edi”, deb o‘sha paytdayoq yozgan edi uning g‘oyaviy muxoliflaridan biri sovet harbiy tarixchisi V. Kuvshinov.

“1919-yil yanvarida Madaminbek qo‘l ostida 16 000 kishidan iborat armiya bo‘lgan”, deb ta’kidlanadi Farg‘ona viloyati soveti nomiga 1919-yil 27-yanvarda yo‘llangan o‘ta shoshilinch ma’lumotnomada. O‘sha yil o‘rtalariga kelib esa Madaminbek qo‘l ostida 25 000 yigit sovet rejimi va qizil armiyaga qarshi istiqlol janglarini olib borgan. Bu paytda Shermuhammadbekda 20 000 yigit, Katta Ergash qo‘rboshida bo‘lsa 15 000–16 000 yigit bo‘lgan.

Yosh Madaminbek tadbirkor lashkarboshi bo‘lish bilan birga usta siyosatchi, mohir diplomat ham edi. U Farg‘ona vodiysidagi qo‘rboshilarni yagona qo‘mondonlik ostiga birlashtirdi, Buxoro amiri Said Olimxon *(1881–1944)* va Xiva xonligining amaldagi hukmdori Junaidxon *(1857–1938)* bilan qizil armiyaga qarshi birgalikda kurashish uchun muzokaralar olib bordi. Samarqand viloyati istiqlolchilarning rahbarlari Bahrombek *(? – 1922)* va Ochilbek *(taxminan 1883–1923)* huzuriga o‘z vakillarini jo‘natdi. Afg‘oniston va Turkiyaga ham ishonchli kishilar yuborildi. Madaminbek Rossiyaning Koshg‘ardagi sobiq konsuli Uspenskiy va Buyuk Britaniyaning bosh konsuli P. Eserton orqali jahon sahnasiga chiqishga, Yevropa davlatlari hamda AQShdan bolsheviklarga qarshi kurash olib borish uchun iqtisodiy va harbiy yordam olishga intildi. Madaminbekning bu sa’y-harakatlari xalqaro maydonda sezilarli yutuqqa olib kelmasa ham, lekin Farg‘ona vodiysining o‘zida mustabid sovet rejimiga qarshi kuchlarni birlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Madaminbek tomonidan mohirona diplomatik siyosat yuritilgani natijasida 1919-yil 22-oktabrda uning boshchiligida Farg‘ona Muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzilgani vodiydagi vaziyatni istiqlolchilar foydasiga o‘zgartirib yubordi. Yagona, kuchli va malakali zamonaviy musulmon armiyasi tuzish ishlari qizib ketdi. 1919-yilning kech kuziga kelib, “Madaminbek qo‘l ostida salkam 30 000 yigit” qizil armiyaga qarshi istiqlol janglarini olib bordi. Bu paytda “Shermuhammadbekda 20 000 yigit”, “Katta Ergash qo‘rboshida 8 000 yigit bo‘lgan”. Ana shu lashkarboshilar vodiydagi jangovar harakatlarni yo‘naltirib turdi.

Sovet rejimi va bolsheviklar istiqlolchilarga qarshi kurashish uchun barcha vositalarni ishga soldi. Turkiston fronti, Turkkomissiya, Turkbyuro, keyinchalik RK(b)P markaziy komiteti O‘rta Osiyo byurosi kabi turli tashkilotlar, komissiya va byurolar tuzilib, boz ustiga, Rossiya markazidan doimiy ravishda Turkiston mintaqasiga yangi-yangi qizil askar qismlari tashlab turildi. Bu holat, xususan Orenburg tiqini tugatilgach, avj olib ketdi. 1920-yil yanvar oyining o‘rtalariga kelib, jangovar tashabbus qizil armiya qo‘liga o‘tdi.

Harbiy tashabbus qo‘ldan ketganini, har qadamda xiyonat ta’qib qilayotganini ko‘rgan Madaminbek o‘z yigitlari hayotini saqlab qolish maqsadida Farg‘onadagi sovet qo‘shinlari qo‘mondonligiga yarash muzokaralari boshlashni taklif etdi. Istiqlolchilar qo‘shinining Bosh qo‘mondoni Madaminbek bilan 2-Turkiston o‘qchi diviziyasining boshlig‘i N. Veryovkin-Roxalskiy o‘rtasida 1920-yil 6-martda Skobelev *(hozirgi Farg‘ona)* shahrida yarash bitimi imzolandi. Madaminbek bilan birga sovet hokimiyati tomoniga uning o‘nlab qo‘rboshilari va 3 500 yigiti ham o‘tgan edi. Lekin Madaminbekning diplomatik tadbirlari bu gal samarasiz tugadi. Sovet qo‘mondonligi tomonidan muzokaralar o‘tkazish uchun qo‘rboshilar orasiga yuborilgan Madaminbek Shermuhammadbekning roziligi bilan Xolxo‘ja Eshon tomonidan 1920-yil 14-mayda qirg‘izlarning Qorovul qishlog‘i atrofida xiyonatkorona o‘ldirildi.

Madaminbek fojiali ravishda halok bo‘lgan bo‘lsa ham, uning porloq nomi Turkiston istiqlolchilari o‘rtasida tillarda doston bo‘ldi. Madaminbek haqida turli qo‘shiqlar to‘qilib, istiqlolchilar tomonidan kuylandi. Maxfiy arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha, ana shunday qo‘shiq matnlarining biriga Munavvar Qori ancha sayqal bergach, bu qo‘shiq yana ham mashhur bo‘lib ketadi.

Madaminbekning qabri hozirgi Qirg‘iziston Respublikasi hududida, Oloy vohasidagi Shig‘ay qishlog‘idadir. Bu manzil XX asrning 20-yillaridan boshlab o‘zbek, qirg‘iz va boshqa turkiy xalqlarning ziyoratgoh maskaniga aylangan. Qabr ustiga o‘rnatilgan marmartoshda “Turing, begim, gunohlarni yuvaylik, bosqinchini ona yurtdan quvaylik!” degan she’riy bitik lotin imlosida o‘zbek tilida o‘yib yozilgan. She’riy matn ostida qilichning rasmi aks ettirilgan.

Qahramon RAJABOV

Dolzarb mavzu

O‘QIGAN AVLOD dunyoni oladi



Surat sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

Xalqimiz orasida antiqa va ko‘ngilga xush yoqmaydigan bir ibora bor. “Kitob o‘qib, shahar olarmiding”, deyishadi. Ming afsuski, Daqyonusdan qolgan bu stereotip kitob ziyosiga esh bo‘lmagan, olomonning boshida ko‘p yillar toshdek mustahkam qotib qolgan salbiy g‘oyadir.

Albatta, bunday yomon fikrlar bejiz kelmaydi. Bir davr bo‘ldiki, o‘qigan yetarli qadr topmadi, o‘qitganning esa mashhur qiziqchimiz kinoya bilan yumor qilganidek, maqomi traktorchinikidan ham tushib ketdi.

Boz ustiga, ishlab turgan katta kitoblar resursiga ega kutubxonalar tizimi zavol topdi. Mamlakatda faoliyat yuritgan bir necha ming kutubxonachilar – ma’naviyat tarqatuvchilarning maoshi juda past darajaga tushib ketdi.

Aslida kitoblar milliardlik bozor edi. Ammo tuman markazlaridagi kitob do‘konlari, kioskalargacha yo‘q qildik, aniqrog‘i maishiy buyumlar sotadigan savdo shoxobchalariga aylantirdik. Alifboning o‘zgarishi esa shundoq ham ildiz ota boshlagan muammoni yanada chigallashtirdi. Katta avlod lotincha o‘qiy olmadi, kichigi esa kirillcha. Dard ustiga chipqon deganday, bu ham kitob va gazeta savdosiga halokatli ta’sir etdi.

Oxir-oqibat butun boshli bir avlodni boy berdik.

Dunyoda geosiyosiy raqobat bilan birga tafakkur uchun, texnologiyalar uchun kurash tobora avj olayotgan hozirgi murakkab bir sharoitda o‘qimagan bolaning o‘qigandan qanday farqi borligini bilib olish qiyin emas.

Shu ma’noda kitobxonlik – har qanday taraqqiyotning bosh belgisiga aylandi.

Masalan, oxirgi yillarda jadal rivojlanayotgan Xitoyda aholining haftalik o‘rtacha kitob o‘qish vaqti 8 soat-u 27 daqiqani, AQShda esa 7 soatni tashkil qiladi. Germaniyada katta yoshli aholi yiliga o‘rtacha 48 ta kitob o‘qiydi.

So‘nggi yillarda axborot texnologiyalari sohasida revolyutsiya qilgan hindistonliklar esa yiliga 16 ta kitob o‘qiydi. Vaholanki, bu raqam bizda atigi bittani tashkil qilmoqda.

Millatimizning necha asrlardan buyon to‘liq hur, farovon yashashdek ushalmay kelayotgan asriy orzu-umidlarini faqat kitob o‘qish, ilm olish orqaligina amalga oshirish mumkinligi inkor etib bo‘lmas haqiqatga aylandi.

Bugun iqtisodi o‘ta rivojlangan davlatlarga qaram bo‘lmay, desak, arzon ishchi kuchi yetishtirib beradigan o‘lkaga aylanib qolishni istamasak, har birimiz har kuni o‘qishimiz kerak.

Men o‘zim muallif bo‘lgan “Dunyo mamlakatlari” kitobini yozib bo‘lib, bir xulosaga keldim: barcha mamlakatlarning tanazzuli va fojiasining tub ildizida elning yalpi savodsizligi, qo‘li kitob ko‘rmasligi va tor fikrlaydigan rahbarlari davlat siyosatini yuritishi yotar ekan.

Ha, o‘qimagan jamiyatlar tobora orqada qolmoqda.

Atrofga bir qarang. Qaynonasini kim o‘ldiradi? Bolasini kim axlat qutisiga tashlaydi? Kim o‘z millatini qullik uchun boshqa millatga sotadi. Albatta, johil inson, ma’rifatsiz kaslar.

Kitob o‘qish, adabiyotga oshnolik insonda “ijtimoiy kognitsiya”ni, ya’ni boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va empatiya qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

YANGI O‘ZBEKISTONDA – KITOBXONLIK BORASIDA YANGI SIYOSAT

Yangi O‘zbekistonda davlat rahbari ish boshlagan ilk kundanoq kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga juda katta e’tibor – rag‘bat berdi. 2017-yilning 12-yanvar kuni kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha farmoyish qabul qilindi.

“Kitob o‘qishni beshikdan boshlash kerak” degan g‘oya ilgari surildi. Boshqa tomondan, O‘zbekiston faqat iqtisodiy va texnologik modernizatsiya qilish bilan to‘liq yangilanib qolmas edi. Uni ma’naviy va mafkuraviy jihatdan bir necha pog‘ona ko‘tarmasdan, kun tartibini tugal deya olmas edik.

Shu tariqa davlatimizda kitob o‘qish shunchaki sevimli mashg‘ulot emas, balki milliy o‘zlikni anglash vositasi va kundalik madaniyatning ajralmas qismiga aylantirish maqsadi qo‘yildi.

Tasavvur qiling, o‘tgan o‘n yilda nashriyotlar soni 5,5 barobar oshib, *(o‘shanda 118 ta edi)* bugun 652 taga yetdi. Matbaa korxonalari esa 1 804 tadan oshdi. Mamlakat miqyosida kitob do‘konlari soni 712 taga yetdi.

Yozuvchilar uyushmasi huzurida tashkil etilgan “Ijod” jamoat fondi tomonidan har yili ko‘plab yozuvchi va shoirlar, ayniqsa yosh ijodkorlarning birinchi kitoblari ko‘p bora ming nusxada nashr etilmoqda.

Sovrin jamg‘armasi katta bo‘lgan turli kitobxonlik tanlovlari o‘tkazilyapti. Ko‘zi mutolaaga qotgan yoshlar, hatto avtomobillar yutib olyapti. Bu yil ilk bor “Yosh kitobxon” tanlovi g‘oliblari bosh sovrinni shaxsan Prezident qo‘lidan qabul qilib oldi.

“Milliy kitobxonlik harakati” har bir odamning hayotida aks etib turibdi. Joriy yildan ko‘lami va salmog‘i yanada kengaydi. Bosh mukofot egasi 50 ming dollargacha pul olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ilk bor davlat yozuvchilar va tarjimonlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri grantlar ajratishni boshladi. Kitobxonlik madaniyatini ommalashtirishda xususiy sektor, jamoat tashkilotlari va davlat hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi ijtimoiy foydali va juda talabgir bo‘lgan katta ma’rifiy loyihalarga kirishdi. “So‘z” kabi avval hech uchramagan dasturlar aks sadosi olis qishloqlargacha bormoqda, ijod ahlini birlashtiruvchi ijobiy hamjamiyatga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 15-yanvarda “**Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi qarori ijodkorlar tomonidan juda iliq kutib olindi.

Mamlakatimizda kitob o‘qish madaniyatini keng targ‘ib qilish, yangi nashrlar va tarjimalarni yo‘lga qo‘yish, aholi orasida kitobga qiziqishni kuchaytirish, kutubxonalar va ta’lim dargohlarini kasbiy va sohaviy adabiyotlar bilan ta’minlashga qaratilgan hujjat ziyolilarni juda quvontirdi.

Millatning har fuqarosiga yiliga bitta kitob kamligidan yozg‘irib turgan edik. 2030-yilga borib aholining kitobxonlik darajasini yiliga o‘rtacha 10 ta kitobga ko‘tarish vazifasi qo‘yildi, choralar belgilandi.

Yoshlar ishlari agentligi huzurida Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg‘armasi tuzildi. “Iste’dodli muallif” kabi katta loyihalar joriy etilib, qalami o‘tkir, katta ijodiy salohiyatga ega yoshlarga turli mayda tashvishlar bilan chalg‘imasdan ijod qilish uchun qulay sharoitlar yaratib berilmoqda.

Joriy yildan boshlab respublika byudjetidan Yoshlar ishlari agentligiga kitoblarni tarjima qilish, nashrga tayyorlash va chop etish xarajatlari uchun har yili ajratiladigan mablag‘lar miqdorini 20 milliard so‘mga yetkazish belgilandi.

Prezident imzolagan hujjat, shubhasiz, muhim yo‘lko‘rsatkich. Hududlar bo‘yicha kitob sotuvi va kutubxona tashriflari asosida kitobxonlik indeksining joriy etilishi, “Bir kunda bir sahifa” nomli umummilliy onlayn tashabbusning yo‘lga qo‘yilishi juda ulug‘ qadamdir.

Davlat xizmatchilari uchun “Kitob o‘qish soati”ni tashkil etish, katta-kichik barcha idoralarda kitob burchaklarini yaratish o‘zini oqlaydigan hodisadir.

YANA NIMA QILISH KERAK...

Ko‘p ish qilishimiz kerak. Bozor qonuniyatiga ko‘ra, yaxshi kitoblarning SOF REKLAMASIni yo‘lga qo‘yishimiz zarur. 30 yil bo‘ldi, birorta telekanalda biror muallifning o‘qishga arzirli kitobining sof reklamasini ko‘rganimiz yo‘q. Lekin ayollarning kundalik ishlatadiganining ekranga olib chiqilishidan tortib sifati kafolatlanmagan dorilargacha, sog‘liqqa zararli ichimliklargacha reklama qilinayotgan bir vaqtda biz hazrat Navoiy yoxud Qodiriy bobomizning shoh asarlarini reklama qilishni o‘zimizga ep bilmaydigan iste’molchiga aylandik.

Maktablarda, albatta, “MUTOLAA MADANIYATI” degan qo‘shimcha darslar bo‘lishi kerak.

Menga yaqinda Otabek Saminjonov degan bola murojaat qildi. “Kitobingizni o‘qimoqchiman, lekin qimmat ekan. Shunga deylik 10 oyga 100 mingdan to‘lab bermoqchiman, rozi bo‘lsangiz”, dedi. Ko‘rinyaptiki, o‘qishga ishtiyoqi katta yangi avlod o‘sib kelyapti. Lekin iqtisodiy quvvati kelmaydigan, ilm-u irfonga berilgan bunday intiluvchan yoshlarga kitob xarid qilish uchun BANKLAR KAM FOIZLI KREDITLAR berib borsa bo‘ladi-ku. Bu yillar o‘tganidan keyin juda katta foydali sarmoya bo‘lganini isbotlaydi, albatta.

Bugun respublikamiz miqyosida jami 17 467 ta kutubxona muassasalari bor, bu ziyo maskanlarining umumiy fondi 89 million kitobni tashkil qiladi. **BU BEQIYOS MA’NAVIY FONDDAN UNUMLI FOYDALANISHIMIZ KERAK**.

So‘nggi yillarda paydo bo‘lib borayotgan XUSUSIY KUTUBXONALAR TARMOG‘Ini *(hozirda 80 ta)* har jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularga imtiyozlar yaratish zarur.

Kitob o‘qish ko‘r-ko‘rona, zo‘rma-zo‘raki majburiyatga aylanib qolmasligi, balki u zavqlanish, go‘zal tuyg‘ularni va chin insoniy fazilatlarni sayqal toptirish vositasiga aylanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, bu zamonda hech bir inson o‘zining eski qobig‘iga o‘ralashib yashashi mumkin emas. **O‘qish – tafakkurni kengaytiruvchi va jamiyatda qotib qolgan stereotip qarashlarni vayron qiluvchi eng ta’sirchan qurol.**

O‘qimaslik nafaqat – muvaffaqiyatsizlikning ishonchli kafolati, balki muqarrar kulfat, yengib bo‘lmas qabohatning naqd o‘zginasi ham.

Shunday ekan, qotib qolgan fikrlardan to‘liq voz kechish uchun ko‘proq o‘qishimiz, kitobxonlikni oilaviy, ijtimoiy qadriyatga aylantirishimiz, intellektual saviyani o‘stirishga qaratilgan asarlarni ko‘proq chop etishimiz zarur.

Himmati bor xalqning ko‘zini ochish istagida bo‘lgan tadbirkorlarimiz har bir qishloqda, albatta, bitta kitob do‘koni ochishga harakat qilishi kerak. Kutubxonalar xo‘jako‘rsinga bo‘lib qolmasligi, ilm tarqatuvchi, gavjum va yangi hayot ruhi ufuradigan tom ma’nodagi ijtimoiy markazlarga aylanishi lozim.

Shunda o‘qigan avlod nafaqat shaharni, balki butun dunyoni oladi.

Laziz RAHMATOV,
siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori *(PhD)*,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

Mushohada

TILIMIZ BOY, undan to‘g‘ri foydalanaylik...



Milliy o‘zlikni anglashda ona tilining o‘rni beqiyos. Uni bir so‘z bilan e’tirof etishning iloji yo‘q. Qabul qilinganining 35 yilligi nishonlanayotgan “Davlat tili haqidagi” qonunning o‘tgan davrda bergan ne’matlarini asrga ta’tigulik yutuqlar deyish mumkin.

Milliy til – millatning tili. U millat tiliga aylangunga qadar urug‘, qabila, elat tili kabi bosqichlarni bosib o‘tgan. Demak, har bir millatning tilida uning rasm-rusumlari, urf-odatlari, turmush tarzi, uning bosib o‘tgan yo‘li o‘zini namoyon qiladi. Shunday ekan, tilni **millatning oynasi** deyish mumkin. Odam oynaga qarab, o‘z qiyofasini ko‘rganiday, til millat egasining butun o‘tmishini o‘zida namoyon qiladi.

Tilning mohiyati, vazifasi ko‘pincha benihoya jo‘n talqin etiladi. Go‘yoki til – eng muhim aloqa vositasi bo‘lgan ijtimoiy hodisa. Tilning aloqa vositasi ekani uning juda ko‘plab vazifalaridan faqat bittaginasidir. Aslida til, eng avvalo, **dunyoni ko‘rish, eshitish, bilish, idrok etish** vositasidir.

XXI asrning bosh muammosi nima, kim aytadi? Turli yadroviy, biologik qurollar, terrorizm, giyohvandlik yoki odam savdosi deysizmi? Yo‘q! Unday emas. Oddiy muloqot, muloqotga kirishish – asrning bosh muammosiga aylanib ulgurdi. Oddiy ikki kishi o‘rtasidagi muomaladan tortib, davlatlararo muloqotlar qanchalar murakkablashayotganini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi.



Surat sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

Bilasizmi, biz globallashuv asrida yashayapmiz. Odamlarning bir-biri bilan muloqotga kirishuvi, fikr almashishi nihoyatda murakkablashib bormoqda. Hozir muloqot paytida **bitta gap – ko‘p, yarimta gap – kam**. Nima qilish kerak? 0,75 qilib gaplashish kerak. Buning uchun har bir odam o‘z yonida tarozi olib yurishi kerak. O‘lchab, 0,75 qilib gaplashish uchun *(hazil)*.

Shu gaplarni aytar ekanmiz, sevimli shoirimizning bir uchligi yodimizga tushadi:

Senga bir so‘z deyishim qiyin,
Yarimta so‘z lug‘atlarda yo‘q.
Baliqlarga qanday yaxshi-ya?

Ha, baliqlar gapirmaydi, lekin bir-birini kamolotning oliy cho‘qqisini egallaganday teran tushunadi, har bir to‘da boshlig‘i o‘z orqasidan minglab baliqlarni ergashtirib yuradi...

Ha, tilimiz juda boy, bir tushunchani bir necha xil shakllarda berish mumkin. Afsuski, katta tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan, grammatik jihatdan sayqal topgan, lug‘at boyligi maqtanadigan darajadagi milliy tilimizning butun jozibasini ko‘rsata olmayapmiz.

Xalqimizda bir maqol bor: “O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir”. Yaratgan egam odamga ham ichki, ham tashqi nutqni ato etgan. Shunday ekan, tabiatning oliy mavjudoti bo‘lgan inson aytish mumkin bo‘lgan narsanigina tashqi nutqqa olib chiqishi lozim bo‘ladi...

Shu o‘rinda hazrat Navoiyning bir bayti beixtiyor yodimizga tushadi:

Oldiga kelganni yemoq – hayvonning ishi,
Og‘ziga kelganni demoq – nodonning ishi.

Qissadan hissa shuki, mo‘min-musulmon kishi har doim ehtiyot bo‘lishi, bo‘lar-bo‘lmas gaplarni aytavermasligi, tilini tiyishi va har kim haqida yaxshi gumonda bo‘lishi zarur. Aks holda, kimning qay ahvolda Parvardigori olamning huzuriga borishini hech kim bilmaydi. Bunga tarixda misollar ko‘p.

Biz bugun axborot texnologiyalari rivojlangan asrda yashayapmiz. Bugun savob qozonish imkoniyati qanchalik keng bo‘lsa, gunohga botish yo‘llari ham shunchalar ko‘pdir.

Ma’lumki, tilda **“o‘lmoq”** tushunchasini turlicha ifodalash imkoniyatlari mavjud. Tilshunos A. Omonturdiyevning yozishicha, o‘zbek tilida **o‘lmoq** tushunchasining 400 ga yaqin evfemik vositasi ma’lum. Jumladan, vafot etmoq, halok bo‘lmoq, qurbon bo‘lmoq, jonini fido qilmoq, bandalikni ado etmoq, yorug‘ dunyo bilan xayrlashmoq, narigi dunyoga ketmoq, chirog‘i o‘chmoq, yostig‘i qurimoq, ko‘ziga tuproq to‘lmoq kabi. Biz bugun ulardan nechtasini bilamiz? Muloqot paytida vaziyatga qarab, qay birini qo‘llashni bugungi yoshlarga qanchalik o‘rgatyapmiz? Mana, gap qayerda?

Biz yuqorida muloqotning qiyinlashib ketayotgani haqida gapirdik. Bu – haqiqat. Har qanday sovuq gapni, har qanday qo‘rqinchli narsani, nomini aytish qiyin bo‘lgan kasallikni o‘zbek tilida silliq, yoqimli yoki yumshoq ifodalash imkoniyati mavjud.

Yana bir gap. Xalq og‘zaki ijodi – bebaho boylik. Bugungi o‘quvchi nechta **xalq maqolini** biladi, nechta hikmatli so‘zni ayta oladi, **nechta iboraning** ma’nosini chaqib bera oladi? Keling, ayrim misollar keltiraylik: **“Otangni o‘ldirganga onangni ber”, “Er-xotin – qo‘sh ho‘kiz”, Chayonning bolasi chayon bo‘ladi, ilonning bolasi ilon...”** kabi maqollarni o‘quvchi muloqot paytida suhbatdoshiga to‘g‘ri qo‘llay oladimi?

Shu bilan birga, tilimizda “Sovuniga kir yuvmoq” iborasi mavjud. Qaynonalar nutqida bu ibora **“Sovunimga kir yuvmabsan”** shaklida tez-tez quloqqa chalinib turadi. Mazkur iborani qanday tushunish kerak? Go‘yo qaynona bozordan sovun olib kelmagan-u, kelin esa bu sovunga kir yuvmagan bo‘lib chiqadimi?...

Keling, yaxshisi, nazariy gaplardan amaliy misollarga o‘tsak. Tilimizning boyligini, imkoniyatlarini, butun jozibasini shoira Halima Xudoyberdiyevaning bir she’ridan olingan parcha bilan namoyon qilsak.

Xalq tili misoli bir buloq ekani ma’lum. Lekin bu buloqdan hamma ijodkor ham birdek suv icha olmaydi. Ma’lumki, shoiraning onalari paxta dalasida dorilangan suvdan ichib qo‘yib, hayotdan juda erta ketadi. Bunday paytda enaning ahvolini tasvirlashga so‘z ojiz. O‘z farzandini narigi dunyoga kuzatish onalar uchun qanchalar azob... Onaning o‘sha paytdagi ruhiy holatini quyidagi parchada shoira shunday tasvirlaydi. Odatda **go‘sha** leksemasi so‘lim, go‘zal maskanga nisbatan ishlatiladi. Shoira unga o‘zgacha ma’no yuklab, matnga olib kiradi. Enasining nutqida qabriston tushunchasini evfemik qo‘llab, uning o‘rnida **ul go‘shani supuribmi turmoq uchun** jumlasini qo‘llaydi:

Dil ovlashda mergan bolam, o‘, bolama,
Dorilarga bergan bolam, o‘, bolama.
Ul go‘shani supuribmi turmoq uchun
Mendan oldin borgan bolam, o‘, bolama...

Mana, individuallik, mana, mahorat, mana, badiiylik, mana, so‘zga yondashuv... Halima Xudoyberdiyeva asarlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, ijodkorning novatorligiga guvoh bo‘lamiz. Har qanday yoqimli narsa, shirin so‘z odamga yoqadi, kayfiyat bag‘ishlaydi. Lekin aksi bo‘lsa-chi? Odatda har qanday odamga **qabriston, mozoriston, go‘riston** degan so‘zlar xush kelavermaydi. Bu joyni evfemik ifodalash ana shunday sovuq tushunchani anchayin yumshatadi. Ijodkor asarda qabr va qabriston so‘zlarini qo‘llashdan chekinib, uni **“O‘lsam, qaro yerga yo‘l”** tarzida matnga olib kiradi.

Halima Xudoyberdiyeva evfemik vositalarni o‘z o‘rnida mohirlik bilan qo‘llab, har bir hodisa, shaxs, voqelik va unga o‘z munosabati tasvirida go‘zal evfemik vositalar tanlaydi, mavjud barqaror birikmalarga ham o‘zgacha tus beradi. Natijada voqea-hodisalar, shaxsning ichki va tashqi qiyofasi hamda adibning ularga badiiy-estetik munosabati ta’sirli ifodalanadi.

Aytilganlardan ma’lum bo‘lmoqdaki, o‘zbek ma’naviyati, milliy ibo, nazokat va andishani go‘zal va dilbar tilimizda ifoda etish mahoratini egallash – barchamizning burchimiz ekanini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

O‘zining betakror va beqiyos hikmatlari bilan dong taratgan milliy tilimiz muloqotning barcha ko‘rinishlarida odob me’yorlari bilan ish ko‘rishimizga, shubha qoldirmaydi.

H. YODGOROV,
Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining Sirdaryo viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari, dotsent

Harbiy texnika

“SMART” – TANKLARNING ISHONCHLI HIMOYA TIZIMI


Sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

YANGI DAVR VA O‘ZGARAYOTGAN JANG MAYDONI

So‘nggi o‘n yillikda jahon miqyosida yuz berayotgan harbiy mojarolar, xususan gibrid va assimmetrik urushlarning xarakteri tubdan o‘zgarib ketdi. Zamonaviy harbiy harakatlarda qo‘shinlarning odatiy to‘qnashuvlaridan ko‘ra, turli innovatsion qurol-asalahalar yuqori aniqlikdagi vositalar hamda keng ko‘lamli texnologiyalar hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Mutaxassislar haqli ravishda ta’kidlayotganidek, bugungi “yaqin jang” tushunchasi nafaqat kuchlar balansi, balki qaysi tomonning zamonaviy harbiy texnika bilan ta’minlangani bilan ham belgilanadi. Bunday shiddatli to‘qnashuvlarda esa tanklar va zirhli obyektlarning o‘rni va ahamiyati nafaqat saqlanib qolmoqda, balki har qachongidan ko‘ra keskin oshib bormoqda.

Hozirgi kunda dunyoning yetakchi harbiy derjavalari o‘z armiyalaridagi zirhli texnikalarning nafaqat olov qudratini, balki eng asosiysi – ularning himoyalanganlik darajasini oshirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Chunki zamonaviy urushda g‘olib chiqish uchun faqat hujum qilishning o‘zi yetmaydi, eng muhimi, texnika va ekipaj hayotini har qanday sharoitda saqlab qolish talab etiladi. Shu bois XXI asr boshidan buyon tinimsiz takomillashib kelayotgan harbiy texnika olamida 2023-yil chinakam burilish va ulkan inqilob yili sifatida tarixga kirdi – aynan shu davrdan boshlab harbiy sohaga mutlaqo yangi avloddagi, eng yuqori himoya tizimiga ega bo‘lgan **“Smart” *(aqlli)* tank va zirhli obyektlar** ommaviy ravishda joriy etila boshlandi.



“SMART” HIMOYA TIZIMI NIMA?

Ko‘pchilikni “Smart” tizimi o‘zi qanday ishlaydi va uning boshqa texnikalardan farqi nimada, degan savol qiziqtirishi tabiiy. Mutaxassislarning izohlashicha, tankka qarshi mudofaaning “Smart” tizimi – bu barcha turdagi tank va zirhli obyektlarni sun’iy intellekt va ilg‘or texnologiyalar yordamida himoya qiluvchi mutanosib tizim bo‘lib, u dushmanning istalgan turdagi qurolidan avtomatik ravishda himoyalanishni ta’minlaydi.

Oddiy qilib aytganda, bunday zirhli mashinalar faqatgina qalin metall qoplama bilan emas, balki murakkab elektron miya va noyob fizik himoya qatlamlari bilan jihozlanadi. Ushbu obyektlarni ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan innovatsion materiallar tankni dushmanning eng kuchli o‘t ochish vositalariga ham chidamli qiladi. Xususan, “Smart” tankning eng muhim xususiyatlaridan biri – o‘ta yuqori quvvatga ega yangi avlod kompozit materiallaridan foydalanilishidir. Ular nafaqat zarbani qaytaradi, balki kuchli portlash to‘lqinlari va qudratli snaryadlarning tank ichiga to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘tib kelishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Shu bilan birga, ushbu texnikalar yuqori darajadagi manyovrchanlikka ham ega. Murakkab tog‘li hududlar, botqoqliklar yoki sun’iy to‘siqlarni osongina yengib o‘tish qobiliyati ularga istalgan murakkab jangovar sharoitda omon qolish va vazifani muvaffaqiyatli bajarish imkonini beradi. Bundan tashqari, “Smart” himoyaga ega tank dushman tahdidlarini avtomatik ravishda kuzatish va aniqlash imkonini beruvchi ilg‘or elektron boshqaruv tizimi bilan jihozlanadi. Avtonom yo‘l-yo‘riq va qurol tizimlari jangovar operatsiyalarning aniqligi va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

ZAMONAVIY “SMART” TANKNING OLTI ASOSIY USTUNLIGI

Mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan va dunyodagi eng yuqori himoyaga ega deb topilgan “Smart” tankning texnik-taktik xususiyatlari quyidagi yo‘nalishlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

1. Zarblarga bardoshli mustahkam zirh. Ushbu tankning zamonaviy ilg‘or texnologiyalar asosida yaratilgan noyob zirh tizimi dushmanning eng so‘nggi rusumdagi tankka qarshi qurollari va minalar zarbalariga bardosh beradi. Bu esa ekipajning jonli kuchi va texnikaning muhim qismlarini maksimal darajada himoya qiladi. Shu bilan birga, bunday zirh orqali ommaviy qirg‘in qurollarining ta’sir doirasi ham keskin kamaytiriladi.

2. Integratsiyalashgan tezkor aloqa. Jang maydonida har bir soniya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois tank va boshqa jangovar guruhlar o‘rtasida real vaqt rejimida ma’lumot almashinuvini ta’minlovchi ilg‘or aloqa tarmog‘i joriy etilgan. Bu komandirga vaziyatni teskari tomonga o‘zgartirish uchun zarur ma’lumotlarni zudlik bilan qabul qilish va boshqa bo‘linmalar bilan harakatlarni muvofiqlashtirish imkonini beradi.

3. Yuqori energiya samaradorligi. “Smart” himoyaga ega tank energiyadan maksimal samaradorlik bilan foydalanish imkonini beruvchi zamonaviy energiya iste’mol tizimi bilan jihozlangan. Bu nafaqat tankning avtonomligini oshiradi, balki uning ekologik yukini ham kamaytiradi.

4. Avtomatik aniqlash va yo‘q qilish. Dushman tomonidan otilgan raketalar, kichik dronlar yoki boshqa yashirin tahdidlarni real vaqt rejimida aniqlab, ularni darhol zararsizlantiruvchi aqlli mexanizm tankning jangovar sharoitda omon qolishini ta’minlaydi.

5. Avtonom boshqaruv. O‘ta xavfli vaziyatlarda yoki ko‘rish imkoniyati cheklangan sharoitlarda texnikani inson aralashuvisiz masofadan turib yoki avtomatik ravishda boshqarish imkoniyati ekipaj a’zolari hayotini saqlab qolishda muhim o‘rin tutadi.

6. Mo‘ljalga bexato uruvchi kuchli qurollar. “Smart” himoyaga ega tank kuchli qurollar bilan jihozlangan bo‘lib, bu esa yer va havo nishonlarini samarali yo‘q qilish imkonini beradi. Bu qurol-yarog‘ vositalariga zamonaviy tankka qarshi raketalar, avtomatik pulemyot va boshqa yo‘q qilish vositalari kiradi. Shu bilan birga, ushbu qurollarni nishonga qarata yo‘naltirish vazifasi avtomatik boshqaruv tizimiga birlashtirilgan bo‘lib, bu zirhli obyektlarning aniq o‘q otish koeffitsiyentini mutlaq oshiradi.

TANKNING AQLLI BOSHQARUV TIZIMI

Dunyodagi “Smart” himoyaga ega tanklar, jangovar vaziyat haqidagi ma’lumotlarni avtomatik ravishda tahlil qilish va qayta ishlash imkonini beruvchi aqlli boshqaruv tizimi bilan jihozlangan. Ushbu tizim xavflarni aniqlashga, optimal marshrutlarni hisoblashga va real vaqtda nostandart qaror qabul qilishga qodir. Aqlli boshqaruv tizimining asosini jangovar operatsiyalarning turli ssenariylari haqidagi ma’lumotlar asosida o‘qitiladigan neyron tarmoq tashkil etadi. Tizim har xil turdagi dushman tanklari, qurollari va snaryadlarini taniy oladi, shuningdek, ekipajni sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan tahdidlar haqida ogohlantiradi. Umuman olganda, aqlli boshqaruv tizimi “Smart” himoyaga ega tanklarning jangovar sharoitlarda avtonomlik va samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirdi. Bu esa ekipajning yuqori xavfsizligini ta’minlaydi va jangovar harakatlar vaqtida maksimal natijalarga erishishiga imkon beradi.

NOYOB JANGOVAR QOBILIYATI

Dunyodagi “Smart” himoyaga ega tank o‘z ekipajlariga samarali jangovar harakatlar uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Ilg‘or texnologiyalar bilan qurollangan ushbu tank, eng qiyin sharoitlarda hal qiluvchi operatsiyalarni bajarishga imkon beradi. Innovatsion navigatsiya va boshqaruv tizimi tufayli tank yuqori manyovrga ega bo‘lib, bu ekipajga jang maydonida osongina manyovr qilish va dushmanning to‘g‘ridan to‘g‘ri hujumlaridan qochish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu tank uzoq masofalardagi nishonlarni aniqlaydigan va kuzatadigan zamonaviy sensorlar bilan jihozlangan bo‘lib, ekipaj a’zolariga bo‘lg‘usi tahdidlarga tezda javob berish imkonini beradi. “Smart” himoyaga ega tankka o‘rnatilgan raketa tizimi ekipajga uzoq masofalardagi nishonlarga yuqori aniqlik bilan hujum qilish imkoniyatini beradi. O‘rnatilgan tanklarni himoya qilish tizimi dushman hujumi paytida shikastlanish xavfini kamaytiradi va ekipajning yuqori darajada omon qolishini ta’minlaydi. Tankning maxsus optik tizimlari ekipajga hatto yomon ob-havo sharoitlarida yoki tungi sharoitlarda ham jang maydonini to‘liq aniqlik bilan ko‘rish imkonini beradi. Shuningdek, bunday tanklar, tahdidlarni aniqlaydigan, shu jumladan tankka qarshi raketalar va granatalarni zararsizlantiradigan faol himoya tizimi bilan jihozlangan.

AVTOMATLASHTIRILGAN ZARYADLASH TIZIMI

Kelajakning “Smart” himoyaga ega tanklarida amalga oshiriladigan asosiy texnologik yangiliklardan biri bu avtomatlashtirilgan qayta yuklash tizimidir. Bu tizim tankka, o‘q-dorilarni tez va samarali zaryad qilish, sarflangan vaqtni minimallashtirish va jangovar qobiliyatini oshirish imkonini beradi. Avtomatlashtirilgan zaryadlash tizimi zamonaviy robototexnika va sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslanadi. Tank zaryadsizlangan o‘q-dorilarni tez va xavfsiz almashtirishga qodir bo‘lgan maxsus robotli qurilmalar bilan jihozlanadi. Zaryadlash tizimi sun’iy intellekt tomonidan boshqariladi, u jang maydonidagi mavjud vaziyatni tahlil qiladi va taktik hamda strategik vazifalarni hisobga olgan holda zaryadlash jarayonini optimallashtiradi. Bir so‘z bilan aytganda, qisqa vaqt ichida jangga tayyorgarlik ko‘rish imkonini oshiradi. Yuksak samaradorlikdan tashqari, avtomatlashtirilgan zaryadlash tizimi yuqori darajadagi xavfsizlikka ega bo‘ladi. Texnologik yechimlar xatolar ehtimolini minimallashtiradi va zaryadlash paytida shikastlanish xavfini kamaytiradi. Buning yordamida himoyalangan tank jangovar operatsiyalarda tezda ishtirok etishi va eng qiyin vaziyatlarda ham qurolsiz qolmasdan o‘z vazifalarini samarali bajarishi mumkin bo‘ladi.

Podpolkovnik
F. UMMATKULOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Harbiy san’at kafedrasi katta o‘qituvchisi h.f.f.d. *(PhD)*

Musobaqa



SPORT – JANGOVAR TAYYORGARLIK ASOSI

Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligi boshqaruv apparatida hamda Farg‘ona viloyatida joylashgan harbiy qismda harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi, jangovar shayligi va ruhiy barqarorligini yanada mustahkamlashga qaratilgan navbatdagi ommaviy harbiy sport ishlari ko‘rigi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirning tantanali ochilish marosimida so‘zga chiqqanlar Vatan himoyachilarining sharafli va mas’uliyatli xizmatiga yuksak baho berib, bugungi kunda Qurolli Kuchlar tizimida harbiy xizmatchilarning jismoniy, ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratilayotganini ta’kidladi. Bu borada harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini muntazam oshirib borishi, sport bilan shug‘ullanishi va yuqori natijalarga intilishi muhim ahamiyat kasb etayotgani qayd etildi. Xususan, “Harbiy sportchi” maqomiga ega bo‘lish uchun intilish har bir harbiy xizmatchining jismoniy tayyorgarligini muntazam takomillashtirib borishida muhim omil ekani e’tirof qilindi.

Sport ko‘rigi davomida harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi turli mashqlar orqali sinovdan o‘tkazildi. Jumladan, qisqa va uzoq masofalarga yugurish, turnikda tortilish, yagona to‘siqlar yo‘lagidan o‘tish kabi mashqlarda ishtirokchilarning kuch, tezkorlik, chaqqonlik va chidamlilik sifatlari hakamlar hay’ati tomonidan baholandi.

Ta’kidlash joizki, bunday sport tadbirlari harbiy xizmatchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, jamoaviy hamjihatlikni mustahkamlash, shuningdek ularda matonat, iroda, chidamlilik va yuqori jangovar ruhni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TOQQQ matbuot xizmati

Tuman boylik

SALOMATLIK DOIMIY E’TIBORDA





Farg‘ona harbiy gospitalida harbiy xizmatchilarning oila a’zolari uchun tibbiy ko‘rik tashkil etildi. Farg‘ona harbiy prokuraturasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan mazkur tibbiy ko‘rikda fuqarolar endokrinolog, dermatolog, mammolog, nevropatolog, terapevt, travmatolog, LOR, okulist, ginekolog, kardiolog, kattalar va bolalar jarrohi kabi tor soha mutaxassislari qabulida bo‘lishdi.

Ko‘rik davomida har bir murojaatchining sog‘lig‘i bilan bog‘liq shikoyatlari tinglanib, kasalliklarning kelib chiqish sabablari va xavf omillari o‘rganildi. Mutaxassislar tomonidan zarur tibbiy ko‘rsatmalar berilib, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollikni oshirish hamda kasalliklarning oldini olish bo‘yicha tavsiyalar bildirildi. Shuningdek, yurak-qontomir, asab, endokrin, tayanch-harakat tizimi, ko‘rish va eshitish a’zolari, teri kasalliklari hamda ayollar va bolalar salomatligi bilan bog‘liq masalalarga alohida e’tibor qaratildi. Ayniqsa, kasallikni dastlabki bosqichda aniqlash va o‘z vaqtida tegishli choralarni ko‘rish inson salomatligini asrashda muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlandi. Zarur hollarda fuqarolarga qo‘shimcha tibbiy tekshiruvlardan o‘tish, tor mutaxassislarga murojaat qilish va davolanish bo‘yicha tegishli tavsiyalar berildi.

Sharqiy harbiy okrug matbuot xizmati

Muloqot

BIATLON FEDERATSIYASI RAISI SPORTCHILAR BILAN UCHRASHDI



Toshkent viloyati Chirchiq shahrida yoshlar o‘rtasida sportning yozgi biatlon turi bo‘yicha O‘zbekiston chempionati musobaqasi o‘tkazildi.



O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining 35 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan ushbu musobaqada respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan 80 ga yaqin sportchi uchta shart bo‘yicha bellashdi.

Musobaqada sportchilar turli masofalarda belgilangan joyga yugurib hamda rollerda harakatlangan holda kelishi va pnevmatik miltiqdan nishonni mo‘ljalga olishi talab etildi.

Bellashuvda qizlar “5 km – masstart”, “7,5 km – roller-sprint” va “estafeta” mashqlarida 1 marotaba yotgan va tik turgan holda nishonga qarata o‘q uzdilar.

Erkak sportchilar esa “6 km – masstart”, “10 km – roller-sprint” va “estafeta” mashqlarida 1 marotaba yotgan va tik turgan holda nishonni mo‘ljalga oldilar.

Qizg‘in va murosasiz kechgan yozgi biatlon bo‘yicha O‘zbekiston kubogi musobaqasida Toshkent viloyati jamoasining qo‘li baland kelib, birinchi o‘rinni egalladi. Ikkinchi o‘rin Namangan va uchinchi o‘rin Buxoro viloyati jamoalariga nasib etdi.

Tadbirning eng esda qolarli jihati – yaqinda O‘zbekiston Biatlon federatsiyasi raisi lavozimiga saylangan “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi rahbari Husan Botirov chempionat o‘tkazilayotgan joyga kelib, yosh biatlonchilar hamda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalari bilan ochiq muloqot o‘tkazdi. 200 dan ortiq yosh ishtirok etgan “Rahbar va yoshlar” uchrashuvida sportchilar va talabalar Husan Botirovga o‘zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Suhbat davomida asosan, O‘zbekiston biatloni istiqboli, jumladan ushbu sport turi bilan shug‘ullanayotgan sportchilarga zarur shart-sharoitlarni yaratib berish, ularning xalqaro musobaqalarda ishtirokini ta’minlash kabi masalalar muhokama markazida bo‘ldi.

Samimiy muloqotdan so‘ng yozgi biatlon bo‘yicha o‘tkazilgan O‘zbekiston chempionati g‘oliblari va yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritgan sportchilar “Vatanparvar” tashkilotining diplom, medal va qimmatbaho sovg‘alari bilan taqdirlandi.

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti matbuot xizmati

Sayyor qabul

MUROJAATLAR YECHIM TOPMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari rahbariyati bilan hamkorlikda ommaviy sayyor qabullar o‘tkazib kelinmoqda.

Bu gal Sirdaryo viloyatining Guliston shahrida navbatdagi sayyor qabul tashkil etildi. Dastlab ochiq muloqot o‘tkazilib, yurtimizdagi, shu jumladan Milliy armiyamiz tizimidagi islohotlar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun yaratilgan keng imkoniyat va imtiyozlar haqida atroflicha so‘z yuritildi. So‘ngra mas’ullar qatnashuvida harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolari, pensionerlar va yoshlar tinglanib, murojaatlarni shu joyning o‘zida hal etish choralari ko‘rildi.

Jarayonda huquqiy maslahatlar berilib, ko‘rib chiqish muddat talab etadigan murojaatlar nazoratga olindi.

Adliya mayori
Begali XURRAMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

Yoshlar huzurida

TADBIRLAR DAVOM ETMOQDA

Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan amaliy tadbirlar muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

Navbatdagi ana shunday tadbir kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda Toshkent tumanining chegaraoldi hududida joylashgan 26-umumta’lim maktabida o‘tkazildi. Unda “Guliston”, “G‘ishtko‘prik”, “Kensoy” va “Mustaqillik” mahallalari yoshlari hamda maktab o‘quvchilari ishtirok etdi.

So‘z olganlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, yoshlar uchun yaratilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlar haqida to‘xtalib o‘tdi. So‘ngra ishtirokchilar harbiy texnika va aslahalar ko‘rgazmasi, harbiy orkestr hamda qo‘ljangi bo‘yicha ko‘rgazmali chiqishlarni qiziqish bilan kuzatdilar. Shuningdek, yong‘inlarni o‘chirish va favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy o‘quv mashg‘uloti yoshlarda katta qiziqish uyg‘otdi. Bunday tadbirlar yoshlarning vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksaltirish, ularni Vatan taqdiriga daxldorlik ruhida tarbiyalash hamda harbiy kasbga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Adliya podpolkovnigi
Alisher QURBONOV,
Toshkent harbiy prokurorining yordamchisi

SHAROITLAR O‘RGANILDI

Bosh prokuror o‘rinbosari – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tomonidan Sirdaryo viloyatidagi harbiy tuzilmalarda o‘rganishlar olib borildi.

Xususan, Milliy gvardiyaning ixtisoslashtirilgan o‘quv markazida mavjud sharoitlar, ta’minot turlari, mashg‘ulotlar jarayoni va bunda zamonaviy harbiy hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari tatbiq etilishi va faoliyatga doir boshqa masalalar o‘rganildi.

Shuningdek, Markazda huquqbuzarliklarning, jumladan, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga alohida e’tibor qaratildi. O‘rganishlar Safarbarlik chaqiruvi rezervi batalyonida davom etdi va unda mavjud sharoitlar, ta’minot turlari ahvoli, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilishi hamda faoliyatga doir boshqa masalalarga e’tibor qaratildi.

Yakunda o‘rganilgan masalalar yuzasidan mas’ullarga tegishli ko‘rsatmalar berib o‘tildi. Bundan tashqari, bir oylik yig‘indagi yoshlar bilan ochiq muloqot o‘tkazilib, ularning fikr-mulohazalari hamda kelgusi maqsad va rejalari o‘rganildi. Muloqot davomida jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olishda namuna ko‘rsatish, qaysi sohani tanlashdan qat’i nazar barcha imkoniyat va yuksak bilim bilan Vatanga xizmat qilish borasida hayotiy tavsiyalar berildi.

Adliya mayori
Ulug‘bek XOLMAMATOV,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining yordamchisi

Salomatlik



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

BOLALARDA SEMIRISH: U QANCHALIK XAVFLI?

Bugun aksariyat xonadonlarda oddiy bir manzaraga ko‘zimiz tushadi: qo‘lida smartfon yoki planshetga termilib o‘tirgan bola, yonida esa bir quti fastfud va gazlangan ichimlik. Yig‘lagan bolaning ovozini o‘chirish, tinchlantirishning eng oson yo‘liga aylangan bu “raqamli enagalar” va zararli yeguliklar aslida farzandimizning sog‘lig‘iga qarshi kurashayotgan jimgina dushmandir.

Bolalarining xarxashasiga yon bosib, ularga tez va mazali taomlar ulashayotgan ota-onalar ko‘pincha buning ortida ulkan xavf yashiringanini sezmaydi. Bugun bolalar orasida ortiqcha vazn va semizlikning keskin oshib borayotgani shunchaki raqamlar yoki estetik muammo emas. Bu – kelajak avlod sog‘lig‘iga bolta urayotgan, millat genofondiga tahdid solayotgan chinakam global xavotir.

Ertaga farzandimizning qomati yoki kayfiyati emas, avvalo yurak-qontomir tizimi, moddalar almashinuvi va ruhiyati butunlay izdan chiqishi mumkin. Xo‘sh, bu xavfli jarayonning oldini olishni qachon va qayerdan boshlaymiz? “Bolam tinch tursin” deb, uning sog‘lig‘ini qurbon qilayotgan o‘zimiz emasmi? Afsuski, shu tufayli ham bugungi kunda maktab yoshidagi bolalar orasida vazn muammolarining keskin oshib borayotgani nafaqat tibbiy, balki chinakam ijtimoiy va milliy xavotir tug‘diruvchi masalaga aylandi.

BOLALARDA SEMIZLIK SABABLARI *(ETIOLOGIYASI)*

Bolalardagi ortiqcha vazn har doim ham ko‘p yeyish bilan izohlanmaydi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti *(JSST)* ma’lumotlariga ko‘ra, bu holat bir nechta muhim omillar majmuasi natijasida yuzaga keladi:

- **Noto‘g‘ri ovqatlanish madaniyati**: uglevodlar, shakar va yog‘larga boy yarim tayyor mahsulotlar, gazlangan ichimliklar hamda fastfudlarning kundalik ratsiondan muqim o‘rin olgani. Uy ovqatlarining esa chetga surilishi.
- **Kamharakat turmush tarzi *(gipodinamiya)***: zamonaviy bolalar jismoniy faoliyatdan ko‘ra, ekran qarshisida vaqt o‘tkazishni afzal ko‘radi. Kunlik faol harakatning yetishmasligi energiya sarfini keskin kamaytiradi.
- **Genetik moyillik va oilaviy omillar**: ota-onalardan birida yoki ikkalasida semizlik kuzatilsa, farzandda bu xavf bir necha barobar ortadi. Bunda nafaqat nasl, balki oiladagi umumiy ovqatlanish va harakat qilish odatlari ham katta rol o‘ynaydi.
- **Psixologik omillar va stress**: maktabdagi yuklamalar, tengdoshlar bilan munosabatlar yoki oilaviy kelishmovchiliklar tufayli bolalar stressni “shirinlik yoki yegulik bilan bosish”ga o‘rganib qolishadi.
- **Gormonal va endokrin buzilishlar:** kam hollarda bo‘lsa-da, moddalar almashinuvining buzilishi yoki ayrim endokrin kasalliklar ham vazn ortishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Metabolik asoratlar – ko‘rinmas xavf: ko‘pchilik ota-onalar “bola to‘ladan kelgan bo‘lsa, semizlik emas, o‘sib ulg‘aygach yo‘qolib ketadi”, degan xato fikrda yurishadi. Ammo amaliyot va ilmiy tadqiqotlar buning aksini ko‘rsatmoqda. Bolalikdagi semizlik ulg‘aygach ham izsiz ketmaydi va u quyidagi jiddiy metabolik asoratlarni keltirib chiqaradi:

- **Erta boshlangan qandli diabet *(2-tur)***: ilgari faqat keksalarda uchraydigan bu kasallik hozirgi kunda ortiqcha vaznli bolalar orasida ham tez-tez qayd etilmoqda. Insulin qarshiligi *(rezistentlik)* bosqichma-bosqich butun organizm faoliyatini izdan chiqaradi.
- **Yurak-qontomir tizimi xastaliklari**: bolalikdanoq qon bosimining ko‘tarilishi *(gipertoniya)* va qonda xolesterin miqdorining oshib ketishi keyinchalik infarkt va insult xavfini bir necha baravar oshiradi.
- **Jigarning yog‘li gepatozi**: ortiqcha yog‘lar faqat tashqi ko‘rinishda emas, balki ichki organlar atrofida, xususan, jigarda to‘planib, uning faoliyatini sekin-asta buzadi.
- **Bo‘g‘im va mushak tizimidagi muammolar**: ortiqcha og‘irlik hali to‘liq shakllanmagan suyak va bo‘g‘imlarga og‘irlik qilib, umurtqa pog‘onasi qiyshayishi *(skolioz)* va yurishning o‘zgarishiga olib keladi.
- **Psixologik komplekslar va depressiya**: tengdoshlari tomonidan mazax qilinish yoki tashqi ko‘rinishidan norozilik bolalarda o‘zgalar bilan muloqotdan qochish, o‘ziga ishonchning pasayishi va psixologik tushkunlikni keltirib chiqaradi.

PROFILAKTIKA CHORALARI

Bolalar orasidagi semizlikning oldini olish va uni bartaraf etish bir kunlik yoki bir martalik tadbir emas, balki butun oilaning turmush tarzini o‘zgartirishni talab qiladigan uzluksiz jarayondir. Bu borada quyidagi amaliy qadamlar muhim ahamiyatga ega:

- **Oilaviy ovqatlanish madaniyatini to‘g‘ri shakllantirish**: stol ustida doimo yangi sabzavotlar, mevalar, ko‘katlar va sut mahsulotlari bo‘lishini ta’minlash. Shirinliklar va fastfudni cheklash, bolaga ovqatni majburlab yedirmaslik.
- **Jismoniy faoliyatni kundalik odatga aylantirish**: bolani biron-bir sport to‘garagiga berish yoki kuniga kamida bir soat toza havoda faol harakat qilishini *(yugurish, velosiped haydash, arqonda sakrash)* nazorat qilish.
- **Ekranda o‘tkaziladigan vaqtni cheklash**: telefon va televizor qarshisida o‘tirish soatlarini qat’iy me’yorlash, buning o‘rniga birgalikda kitob o‘qish yoki faol o‘yinlar o‘ynash maqsadga muvofiqdir.
- **Sog‘lom uyqu rejimini yo‘lga qo‘yish**: ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tunda yetarlicha uxlamaydigan bolalarda ishtahani boshqaruvchi gormonlar muvozanati buzilib, vazn ortishiga moyillik kuchayadi.

Farzandimizning sog‘lom, barkamol va baxtli bo‘lib ulg‘ayishi har birimizning eng muhim burchimizdir. Bolalik davrida orttirilgan ortiqcha vazn bu shunchalik ko‘p qirrali muammoki, unga befarq qarash kelajakda farzandimizning umrini qisqartirishi va hayot sifatini jiddiy tushirib yuborishi mumkin. Unutmaylik, bolalar o‘z ota-onalarining hayot tarzini ko‘rib, ko‘chirib katta bo‘lishadi. Shunday ekan, keling, sog‘lom turmush tarzini o‘zimizdan boshlaylik va farzandlarimizga sog‘lom kelajak hamda to‘g‘ri odatlarni meros qilib qoldiraylik. Zero, salomatlikdan ulug‘ boylik ham, sog‘lom boladan qadrliroq sarmoya ham yo‘q!

Sarvinoz BEKMURODOVA,
Toshkent tibbiyot universiteti talabasi

Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotlarida

REKLAMA

YOSHLAR SPORT TO‘GARAKLARIDA...







Qashqadaryo viloyatining olis va chekka tumanlaridan biri Dehqonobodda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining viloyat kengashi tasarrufidagi tuman o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, texnik mutaxassislar hamda ommaviy kasbdagi xodimlarni tayyorlash, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.





Xususan, markazimizda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida rang-barang uslublardan foydalanilmoqda. Chunonchi, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish maqsadida ular turli sport to‘garaklariga jalb etilmoqda. Bundan tashqari, harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti doirasida turli tadbirlar o‘tkazish ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlab “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda “Vatanparvar” tashkiloti tashkil etilganining 35 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan tadbirlar ana shunday ishlarimiz sirasidan.

Albatta, bunday tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishdan maqsad, yoshlarni ona Vatanga munosib vatanparvar insonlar bo‘lib kamol topishiga ko‘maklashishdan iborat. Tuman hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan bu kabi uchrashuv hamda tadbirlar yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

Bundan tashqari, maqsadli dasturlar ijrosi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ham o‘z samarasini bermoqda. Shu bois barcha sohalar uchun haydovchilar tayyorlash bo‘yicha belgilangan topshiriqlar o‘z vaqtida uddalab kelinmoqda. Natijada markazda “A”, “B”, “BC”, “BE”, “CE” hamda “D” toifali haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlash ishlari muvaffaqiyat bilan bajarib kelinmoqda.

Bunda bir qancha tajribali o‘qituvchi va amaliy boshqarishni o‘rgatuvchi-ustalarning xizmati katta.

Ta’kidlash joizki, keyingi yillarda tashkilot jamoasi sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida ham salmoqli natijalarga erishmoqda. “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Duatlon” hamda “Karting” kabi sport seksiyalarida o‘ttiz nafardan ziyod iqtidorli yosh muntazam shug‘ullanib kelmoqda. Ular nufuzli musobaqalarda faol ishtirok etyapti. O‘z navbatida, sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kirityapti. Bu esa markazda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha murabbiylarning mehnat va izlanishlari samarasidir.

Zafarjon ZIYADOV,
“Vatanparvar” tashkiloti
Dehqonobod tumani
O‘STM NTM direktori



“Vatanni sevmoq iymondandir”, deb yozilgan muqaddas kitoblarda. Darhaqiqat, Vatanni qadrlamoq, uni himoya qilmoq, shu yurt farzandiman, deyish har bir inson uchun ham qarz, ham farz. Shuni quvonch bilan aytish joizki, o‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Muborak tumani o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasida yoshlarni har tomonlama yetuk, jismonan baquvvat, ma’naviy barkamol bo‘lib voyaga yetishlari, shuningdek ular qalbida Vatanga mehr-u muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish borasida samarali natijalarga erishilmoqda.

O‘Z ISHINING MOHIRLARI

Bugungi kunga kelib, markazda yoshlar uchun barcha kerakli shart-sharoitlar yaratilgan. Kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarimizning jismoniy, ma’naviy-ruhiy jihatdan yetuk bo‘lishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy jihozlangan ma’naviyat va ma’rifat xonasida harbiy-vatanparvarlik g‘oyalari targ‘iboti yuzasidan uchrashuv va suhbatlar tashkil etilib boriladi. Ayniqsa, “Vatanparvar” tashkiloti tashkil etilganining 35 yilligi munosabati bilan Harbiy qismlar hamda o‘quv muassasalarida o‘tkazilayotgan tematik kecha va uchrashuvlar yoshlarimizda katta taassurot qoldirmoqda.

– Ahillik, hamjihatlik bilan ko‘rsatayotgan faoliyatimiz yoshlarimizning yetuk insonlar sifatida kamol topishiga munosib ulush qo‘shayotgani kishini mamnun qiladi, – deydi markaz direktori Athamjon Nekboyev. – Shu o‘rinda haqiqiy ma’nodagi yelkadoshlik, safdoshlik bilan amalga oshirilayotgan ishlarimiz tufayli tashkilotimiz nufuzi va salohiyati yanada oshishiga, yuksalishiga ishonchim komil.

Qo‘lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlarda Rustam Elmurodov, Shuhrat Abdullayev, Ruxsora Fayziyeva, Sherali Arabov, Shohida Ergasheva, Bobosharif Sharipov singari markaz jamoasining zamon talablari darajasidagi ibratli faoliyati, shuningdek ularning izlanish va intilishlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlab kelayotgan tashkilot rahbarining xizmatlari ham alohida o‘rin tutadi. Chunki Athamjon Nekboyev o‘z kasbining mohir ustasi sifatida e’tiborga egaligi bilan harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti hamda malakali haydovchilar tayyorlash sifatini yaxshilashda barcha imkoniyatlardan mohirona foydalanishga qodir tashkilotchi rahbar ekanini ham amalda ko‘rsatib kelmoqda.





Joriy yilning o‘tgan oylari mobaynida markazda uch yuz nafardan ziyod tinglovchi turli toifalar bo‘yicha haydovchilik kurslarida ta’lim oldi. Shuningdek, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi ko‘magida sakkiz nafar muhtoj oila farzandlari haydovchilikning “B” toifasiga o‘qimoqda. Shu kunlarda tashkilotda “A”, “B”, “BC”, “BE”, “CE” hamda “D” toifali haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

Muborak tumani o‘quv sport-texnika markazida yoshlar sportning texnik va amaliy turlari bilan shug‘ullanishlari uchun ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu boradagi natijalar ham yomon emas. Shu kungacha muhim sanalarga bag‘ishlab, bir qancha sport musobaqalari tashkil etildi. Tashkilotda “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Karting” kabi seksiyalar faoliyat ko‘rsatyapti. Ayniqsa, muboraklik kartingchilar viloyat musobaqasida peshqadamlikni qo‘ldan bermay kelmoqda.



Ayni paytga kelib, mazkur markaz viloyat miqyosidagi tizim tashkilotlari ichida turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘z mavqeyini yanada mustahkamlamoqda.

Akbar ALLAMURODOV

Millat fidoyilari

2005-yil 13-may kuni Andijon viloyati Andijon shahrida terrorchi-ekstremistik guruhlarning ma’muriy binoga qilgan hujumini qaytarish vaqtida qahramonlarcha halok bo‘lgan mard o‘g‘lon Jo‘rayev Bahrom Ulug‘bek o‘g‘lining yorqin xotirasiga bag‘ishlayman. Bahrom Jo‘rayev 1979-yil 21-noyabrda tavallud topgan. U 25 yoshda edi.



Sizni unutmaymiz, aziz kapitan!

Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 209-umumta’lim maktabi hovlisiga Bahrom Jo‘rayevning byusti o‘rnatilgan.

Kapitan Bahrom Jo‘rayev O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 23-maydagi farmoniga binoan xizmat burchini bajarish chog‘ida mardlik, jasorat va fidoyilik ko‘rsatgani uchun II darajali “Shon-shuhrat” ordeni bilan taqdirlangan.

***

Kapitan Jo‘rayev o‘qigan maktab
Yo‘liga rang-barang gullar ekilgan.
Kapitan Jo‘rayev o‘qigan maktab
Bog‘ida qirmizi olma to‘kilgan.
Olamda Vatandan aziz nima bor?
Gullarda Bahromning so‘zlari qolgan.
Oltinrang yaproqlar pichirlar takror:
“Bu bog‘da Bahromning izlari qolgan”.
Bahromning onasi – Shirin opaning
Etagin ko‘ziga surtar shamollar.
Bahromning otasi – Ulug‘bek otaning
Dilida xotira, sog‘inch, savollar...
Mardlari bor Vatan volidasini
Yovlarga bermaydi, xorlab, yig‘latib.
Yurtning yo‘lbarslari o‘z otasini
Yog‘iy itlariga qo‘ymas talatib.
Yurtini jonidan azizroq suygan,
Bahodirlar o‘tgan bizning ellarda.
Boshini Vatanning poyiga qo‘ygan
Bahromlar dostondek yashar tillarda.

Biz Temur avlodi mangu muzaffar,
Ulug‘ shajaramiz, aziz kapitan!
Ortingizda qoldi million mard yigit,
Buyuring! Bajaramiz, aziz kapitan!
Olamda Vatandan ulug‘ nima bor?!
Bu savol va aynan javob, kapitan!
Minnatdor yashaymiz, qarzdor yashaymiz,
Izlaringiz aylar tavof, kapitan!
Atrofda oltin kuz, qaytar turnalar,
Siz tug‘ilgan fasl – bu, aziz kapitan!
Turnalar bir og‘ir aylanib uchdi.
Yer qattiq va osmon yiroq, kapitan!
Bu yerning ostida SIZdek OLTIN bor,
Bu tuproq – muqaddas tuproq, kapitan!
Shu yurt deb jon tikkan jannati yigit,
Sizni unutmaymiz, aziz kapitan!

Zulfiya Mo‘minova

MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Alisher Ergashev
podpolkovnik Ulug‘bek Fattaxov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir vazifasini vaqtincha bajaruvchi: kapitan Bobur Elmurodov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-72

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova
Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo‘ziyeva
Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-6199
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 32 143 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH” YTT mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH” YTT hamkorlikda “O‘zbekiston” NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot

BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz
t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya